

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGI KAFEDRASI
IV KURS BITIRUVCHISI

OBIDOVA SEVARA HAYOTOVNANING

**«Begali Qosimov-o'zbek milliy uyg'onish davri adabiyoti tadqiqotchisi»
mavzusidagi**

**5120100 – Filologiyava tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida bakalavr akadem
darajasini olish uchun yozgan**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2018-2019- o`quvyili)

Ilmiyrahbar:

filologiyafanlaridoktori, dotsent.

DAVRONOVA SH.

BUXORO – 2019

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

IV KURS BITIRUVCHISI

OBIDOVA SEVARA HAYOTOVNANING

**“Begali Qosimov-o`zbek milliy uyg`onish davri adabiyoti
tadqiqotchisi”**

MAVZUSIDAGI

**5120100 – Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida bakalavr
akadem darajasini olish uchun yozgan**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2018-2019-o`quv yili)

Ilmiyrahbar:

filologiya fanlari doktori, dotsent

DAVRONOVA.SH

Rasmiy hakam: o`qituvchi

SAFAROVA.H

BUXORO-2019

«Ma'qullayman»

Ilmiy rahbar: f.f.nomzodi,
dotsent. Sh.Davronova

« » _____ 2019-y.

«Tasdiqlayman» _____

O'zbek adabiyoti
kafedrası mudiri
Sh.N.Ahmedova

« » _____ 2019 -y.

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchisi **Sevara Obidovanning «Begali Qosimov-o'zbek milliy uyg'onish davri adabiyoti tadqiqotchisi»** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ustida olib borishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan

TOPSHIRIQLAR REJASI

Faoliyat nomi	Ishning qisqa chamazmuni	Bajarilish vaqti	Bajarilgan ishlar haqida ilmiy rahbarxulosasi (imzo)	Talaba (imzo)
Nazariyfao liyat	1. Mavzu bo'yicha zaruriy ilmiy, ilmiy-metodik materiallarni to'plash, o'rganish	Sentabr		
	2. Ilmiy adabiyotlarni mavzu nuqtayi nazaridan o'rganish	Oktabr		
	3. Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash. To'plangan materiallarni sistemalashtirish	Noyabr		
BMI ustida ishlash	1. BMI rejasini tuzish. Tadqiqotning kirish qismini tayyorlash	Dekabr		
	2. I bob paragraflari ustida ishlash (yig'ilgan nazariy ma'lumotlarni ishga kiritish)	Yanvar		
	3. II bob paragraflari ustida ishlash (nazariy ma'lumotlar asosida ishning amaliy qismini shakllantirish)	Fevral		
	4. Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko'chirish	Mart		
	5. Xulosa (tahlillar natijasida umumlashmalar va xulosalarni yoritish)	Aprel		
	6. Adabiyotlar ro'yxatini tartibga solish			

BMI ni rasmiy- lashtirish	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	May		
BMI ni himoya qilish		Iyun		

Bitiruvchi kurs talabasi: Sevara Obidova

Ilmiy rahbar: Shohsanam Davronova

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o`zbek adabiyoti kafedrasining 1-yig`ilishi bayonnomasidan
KO`CHIRMA

-----, 2019-y.

Qatnashdi: kafedraning barcha
a`zolari

K U N T A R T I B I

Bitiruv malakaviy ishlari mavzularining muhokamasi, tasdig`i hamda
ilmiy rahbarlarni tayinlash.

Kafedra qaror qiladi:

4-kurs talabasi **Obidova Sevaraning** bitiruv malakaviy ishi mavzusi **“Begali Qosimov–o`zbek milliy uyg`onish davri adabiyoti tadqiqotchisi”** shaklida tasdiqlansin. Bitiruvchi kurs talabasi **Obidova Sevaraning** malakaviy bitiruv ishiga f.f.nomzodi, dotsent **Davronova Shohsanam** ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Yig`ilish raisi: Sh.N.Ahmedova

Yig`ilish kotibasi: U.To`rayeva

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o`zbek adabiyoti kafedrasining navbatdan tashqari yig`ilishi
bayonnomasidan

KO`CHIRMA

Buxoro sh.

-----, 2019-y.

Qatnashdi:

kafedraning barcha a`zolari

K U N T A R T I B I

4-kurs talabasi Obidova Sevaraning “Begali Qosimov–o`zbek milliy uyg`onish davri adabiyoti tadqiqotchisi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi muhokamasi

Kafedra qaror qiladi:

4-kurs talabasi Obidova Sevaraning “Begali Qosimov–o`zbek milliy uyg`onish davri adabiyoti tadqiqotchisi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi «sinov himoyasidan o`tdi» deb hisoblansin va rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.

Mazkur bitiruv malakaviy ishga taqrizchi etib o`qituvchi H.Safarova tayinlansin.

Yig`ilish raisi: Sh.N.Ahmedova

Yig`ilish kotibasi: U. To`rayeva

**Filologiya fakulteti 5120100-Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta`lim
yo`nalishi bitiruvchisi Obidova Sevaraning “Begali Qosimov-o`zbek milliy
uyg`onish davri adabiyoti tadqiqotchisi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi**

ANNOTATSIYASI

Mazkur ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o`rganilishi, ilmiy-amaliy ahamiyati, maqsad va vazifalari haqida fikr yuritilgan. Bitiruv malakaviy ishining I bobi Begali Qosimov hayoti va uning asarlari manbaalari va tadqiqot usullariga bag`ishlangan bo`lib, ikki fasldan iborat. “Milliy uyg`onish davri va jadid adabiyotini o`rganishda Begali Qosimovning o`rni” deb nomlangan birinchi faslda Begali Qosimov hayoti va asarlarining manbaalari va tadqiqot usullari o`rganilgan. Begali Qosimovning o`zbek adabiyotshunosligi rivojiga qo`shgan hissasi haqida so`z yuritilgan. Uning hayoti va ijodi haqida to`liq ma`lumot berilgach, asarlarining manbaalari va tadqiqot usullariga to`xtanilgan.

Bitiruv malakaviy ishining II bobi “Begali Qosimov milliy uyg`onish va jadid adabiyotiga oid tadqiqotlarning ilmiy-ma`rifiy ahamiyati”ga bag`ishlangan. Ushbu bobda olimning jadid adabiyoti va milliy uyg`onish davriga aloqador xizmatlari ta`kidlangan va tahlil qilingan. Begali Qosimovning jadid adabiyoti namunalarini to`plovchi va targ`ibotchisi sifatidagi xizmatlari, olimning davr adabiyoti tadqiqiga bag`ishlangan asarlari mazmun-mohiyati o`rganilgan.

Tadqiqot ishining xulosasi, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati talab darajasida tuzilgan.

Ilmiy rahbar:

Sh.Davronova

Talaba:

S.Obidova

Graduate of the specialty 5120100-Filology and Language Teaching (Uzbek Language) Obidova Sevara "Begali Kosimov - Literary Researcher of the Uzbek National Renaissance Literature"

Annotation

The introductory part of this work focuses on the relevance, learning, scientific-practical significance, goals and objectives of the topic. Part I of the graduation qualification work is composed of two episodes of the life and works of Begali Qasimov and Begali Qosimov in the first chapter entitled "The role of Begali Qosimov in the study of the period of national revival and literature in jazz" sources of life and works and methods of research are studied. Begali Qosimov's contribution to the development of Uzbek literature. After completing his full knowledge of his life and creation, his sources and research methods were clarified.

Chapter II of the graduation qualification works is based on "Scientific and educational significance of Begali Kosimov's research on national revival and jazz literature." In this chapter, the scientist's activities regarding the Jadid literature and the period of national revival have been highlighted and analyzed. Begali Qosimov has been studying the samples of Jadid literature as a compiler and inventor, and the essence and significance of the scientist devoted to the study of periodical literature.

The findings of the study are based on the list of literature used.

Scientific supervisor:

Sh. Davronova

Student:

S. Obidova

Fakultet ilmiy kengashning 2019- yil may

Bayonnomasi bilan tasdiqlangan

**BuxDU filologiya fakulteti 5120100 –Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili)
ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi Sevara Obidovaning «Begali Qosimov–o`zbek
milliy uyg`onish davri adabiyoti tadqiqotchisi» mavzusidagi bitiruv
malakaviy ishiga DAK**

XULOSASI

№	Belgilangan me'yorlar			
1	BMIning hajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor: 45 betdan kam bo'lmasligi kerak)	Talabga javob beradi–10 ball	Talabga qisman javob beradi–7 ball	Talabdan chetga chiqish holatlari mavjud–4 ball
2	Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo'yicha tanlanganligi	Davlat dasturiga kirgan–8 ball	grant loyihasi bo'yicha – 7 ball	BuxDU dasturi bo'yicha–6 ball yoki dolzarb muammolar bo'yicha–5 ball
3	Mavzu dolzarbligining asoslanganligi	Yetarli darajada asoslangan–5b.	Yetarli asoslan-magan–3b.	Noaniq -2 ball
4	Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi	aniq - 7 ball	to'liq aniq emas – 5 ball	Aniq emas – 3 ball
5	BMIda ilmiy tekshirish metodlaridan foydalanganlik darajasi	to'la– 7 ball	qisman – 5 ball	yeterli emas-3 ball

6	Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi	Natija yangi – 8 ball	Ilgari olingan – 6 ball	to`la ishonchli emas–3 ball
7	BMIning xulosa qismida tavsiyalar berilganligi:, ijtimoiy sohada qo`llashga (ta`lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma`naviy-ma`rifiy...)	Bevosita ishlab chiqishga tavsiyasi bor -6 ball	tavsiya qilingan-5 ball	Tavsiya yo`q– 3 ball
8	Bitiruvchining mavzu bo`yicha olingan natijalarini tanqidiy baholanganligi darajasi	aniq-8 ball	to`la aniq emas – 6 ball	Tanqidiy baholanmagan- 4 ball
9	Ishning ilmiy xarakteri	Ilmiy tadqiqotlar asosida - 8 ball	Aralash shaklidan - 5 ball	Referaktiv xarakterdan - 3 ball
10	Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi	ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan to`la foydalanilgan - 8 ball	Ilmiy adabiyotlar kam foydalanilgan – 6 ball	Faqat darslik, ma`ruzatmatnlari, o`quv qo`llanma va ma`lumotnomalardangina foydalanilgan - 4 ball
11	Bitiruvchi taqdimotiga baho	a`lo – 10 ball	yaxshi – 7 ball	qoniqarli – 6 ball
12	Berilgan savollarga	to`liq – 8 ball	o`rta – 6	qoniqarli- 4 ball

	javobi		ball	
13	BMI ni tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi	a'lo – 7 ball	yaxshi – 6 ball	qoniqarli – 5 ball
14	BMI ga qo'yilgan yakuniy ball:		Bahosi:	

Eslatma: Harbir ball bo'yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi: TDO`AU professori, filol. f. dok. B.R.Mengliyev

A'zolari:

1. D.Z.Rajabov(fakultet dekani, filol. f. dok.)
2. Sh.N.Ahmedova (o'zbek adabiyoti kafedrasi professori, f.f.d.)
3. G'.Murodov (o'zbek adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.d)
4. H.Safarova (o'zbek adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.n)
5. H.Samiyeva (Buxoro shahridagi 35-son maktab o'qituvchisi)
6. M.Bozorova (BuxTI qoshidagi 1-akademik litsey o'qituvchisi)

.....-iyun, 2019-y.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Respublikamizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi xalqimiz ijtimoiy hayotining hamma sohalarida tub burulishlar davrini boshlab berdi. Buv davrda milliy-ma'naviy qadriyatlar tiklanib, mustaqillik mafkurasini vatandoshlarimiz shuuriga singdirish, yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalash kabi masalalar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi: bu o'z navbatida ilm va fanning boshqa sohaları qatori adabiyotshunosligimiz oldiga ham ulkan va ma'sulyatli vazifalar qo'ydi. Adabiyot insonga xizmat qilishi lozim va insonni ma'naviy tarbiyalash quroli hisoblanadi. Buning uchun adabiyot milliy va umuminsoniy g'oyalari o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Shundagina insonga xizmat qilish mumkin. Ammo, mustamlaka davrida adabiyot yagona g'oya-sotsialistik g'oya uchun xizmat qildirildi. Demak, adabiyot o'z vazifasini to'liq bajarmadi.

Ajdodlarimiz qoldirgan madaniy merosni o'rganish, ular yaratgan olamshumul ilmiy-kashfiyotlarni ro'y-rostbayon qilish imkoniyati faqat mustaqillik tufayligina vujudga keldi. Ana shu imkoniyatdan foydalangan holda o'tmish madaniy merosimizni sinchiklab o'rganish, ajdodlarimizning dunyo adabiyotshunosligiga qo'shgan xizmatlarini faxr-iftixor tuyg'usi bilan keng omma o'rtasida targ'ib va tashviq qilish har bir o'zbek ziyolisining eng shavqli-zavqli ishiga aylanmog'i lozim.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek: "Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan-shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham-shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham shu xalq. Xalq rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi. Xalq bizdan rozi bo'lsa, Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi"¹. Shunday ekan, biz nima uchun ana shu xalqimizning milliyligi, urf-odatları, bag'rikengligi va mehmondo'stligini butun dunyoga tanitmasligimiz, milliyligimiz va umuminsoniy qadriyatlarimiz tarannum etilgan asarlarni o'rganmasligimiz lozim?!

¹¹ Мирзиёев. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Шавкат Ўзбекистон, 2016, 18-б.

XX asrning 70-80-yillarida o'zbek adabiyotida oddiy turmush sharoitida harakatlanadigan, milliy ruhni o'zida aks ettirgan inson qahramon sifatida tasvirlangan asarlar yaratila boshlandi. Ularda odamlarning turmush tarzi qanday bo'lsa, shundayligicha aks ettirildi. Hayotiy muammolar o'z holicha, yolg'on-yashiqsiz, realistik tasvirlar vositasida o'zining haqqoniy ifodasini topdi. Davr adabiyotida milliylik va mustaqillik ruhini, umuminsoniy g'oyalarni va asarlarida yangicha uslublarda aks ettirgan yangi istedodlar kirib keldi. Begali Qosimov ana shunday ijodkorlarning biri. Adib adabiyot maydoniga kirib kelgan davrdan to bugungacha katta ijodiy yo'lni bosib o'tadi. Uning asarlarida vatanimiz ozodligi, mustaqilligi uchun kurashgan milliy qahramonlarimiz, xalqimizning baxt-saodat haqidagi orzu-armonlari, adolat va haqsizlik, ezgulik va yovuzlik, nur va zulmat o'rtasidagi kurash, mehnatsevarlik va yalqovlik, rosgo'ylik va yolg'onchilik, halollik va qalloblik, muhabbat va nafrat, xalq daholari va allomalarining ibratli hayoti va ilm-fandagi jasoratlari, bolalarcha sho'xlik va o'yinlar, do'stlik va tabiat go'zalliklaridan zavqlanish va boshqa ko'pgina mavzular, axloqiy, ma'naviy muammolar o'ziga xos rang va ohanglarda tasvirlab berilgan. Bugun bir komil insonni tarbiyalashni maqsad qilgan ekanimiz, buning adabiyotsiz sira iloji yo'q. Bu yo'lda adabiyotning xizmatiga tayanishimiz zarur. Begali Qosimov asarlarini o'rganish ana shunday avlodni tarbiyalashda asqotishi shubhasiz. Mavzuning dolzarbligi ham ana shundadir.

Ishning o'rganilish darajasi. Bugungi kunda olimning hayoti, ijodi, faoliyati haqida to'liq ma'lumot beruvchi asarlardan biri bu uning zamondoshlari, yaqin do'stlari, shogirdlari tomonidan yozilgan "So'ngi jadid" qissasidir. Bu asar orqali biz olim haqidagi juda ko'p ma'lumotlarni aynan uning zamondoshlari tilidan bilib olishimiz mumkin. Jumladan, qissaning bir yerida Olimning yaqin do'stlaridan biri Abdulla Oripov uni shunday xotirlaydi: "Men Begali bilan tengdosh edim. Bu unutilmas do'stimni o'smirlik, o'spirinlik yillaridanoq yaxshi bilaman. Biz birga o'qidik o'sib undik. Ilm-ijod bobida birgalikda baholi qudrat

xizmat qildik”². Biz ustozning do’shti Abdulla Oripov so’zlaridan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, Begali Qosimovning beg’ubor bolaligi, eslasa zavq-shavq bilan eslagulik davri aynan shu kishi bilan o’tgan. Demak, biz bevosita A.Oripovning hayotini o’rganish jarayonida ham ustoz haqidagi bir qancha ma’lumotlarga duvh kelishimiz mumkin ekan.

Ustoz Begali Qosimovni ko’pchilik do’stlari jadidshunoslikka qilgan xizmatlari uchun uni “so’ngi jadid” deb atashardi. Yaqin do’stlaridan yana biri Muhammad Ali buni shunday yodga oladi: “Zukko va tug’ma olim Begali Qosimovni davralarda hazillashib, “Jadidlarning so’ngisi” deb atardik. U hech narsa demas, faqat miyig’ida jilmayib qo’yardi. Begali tashqi ko’rinishidan ham jadidlarga o’xshab ketardi, ko’zoynak taqishi, ayniqsa nozikkina mo’ylabi tasavvurimizni yana ham tiniqlashtiradi”³.

Biz bu qissada nafaqat olimning ijod bilan bog’liq faoliyatiga doir, balki uning oilasi haqida ham ma’lumotlarga ega bo’lishimiz mumkin. Jumladan xotinining ismi Matlubaxon bo’lganligi, uylanish masalasida ham ikki o’t orasida qolib qiynalganligi, keyinchalik esa baxtli oilalardan biri sifatida hayot kechirganligi haqidagi voqealar. Uning zamondoshlaridan biri Umrzoq O’ljaboev “Begali Matlubaxon bilan umrining oxiriga qadar yaxshi yashadi, baxtli hayot kechirdi. Ular to’rt farzand-ikki o’g’il, ikki qiz ko’rishdi. Farzandlarining hammasi oily ma’lumotli mutaxassislar bo’lib yetishdi va hozir turli joylarda el-yurt manfaati yo’lida xizmat qilishmoqda”⁴.

Shuni ta’kidlab o’tish joizki, olim haqida to’laqonli ma’lumot beruvchi manba uning o’z asarlaridir. Uning ilmiy asarlari orqali u o’rgangan ijodkorlar, qiziqqan sohasi, sinchkov va mehnatkash olim bo’lganligi to’g’risida tasavvurlarga ega bo’lamiz.

²Орипов.А.Илмда кўриқ очган олим /Сўнги жадид киссаси.- Т.: “Turon-Iqbol”,2012, 4-б.

³Мухаммад.А. Маърифатпарвар аллома/ Сунги жадид киссаси -Т.: “Turon-Iqbol”,2012, 8-б.

⁴Улжабоев.У. Хотира қаридаги изтироблар/ Сўнги жадид киссаси -Т.: “Turon-Iqbol”,2012, 43-б.

Qolaversa, adabiyotshunosning hayot yo'li va foliyatiga oid to'plab nashr etilgan xotira maqolalardan tashkil topgan "So'nggi jadid qissasi" to'plami uning haqidagi ma'lumotlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu kitob to'rt bo'limdan "Yo'qlov", "E'tirof", "Sog'inch", "Bag'ishlov" kabi qismlardan tashkil topgan. "Yo'qlov" qismida olimning do'stlari, yaqinlari tomonidan aytilgan fikrlar biz uchun qiziqarli bo'lgan olimning hayoti haqida ma'lumotlarga duch kelishimiz mumkin. Jumladan, Abdulla Oripovning "Ilmda qo'riq ochgan olim", Muhammad Alining "Ma'rifatparvar alloma", Umrzoq O'ljaboev "Xotira qaridagi iztiroblar", Shavkat Karimov "Qirq yillik qadrdon" kabi maqolalarida olim haqidagi malumotlarga duch kelishimiz mumkin. "E'tirof" qismida esa Ozod Sharafiddinov o'zining "So'ngi jadid qissasi" da olimni hazillashib "so'ngi jadid" deb chaqirganligini aytadi. Bundan tashqari shu qismda Umarali Normatovning "Qat'iyat", Rahbarxon Murtozaevaning "Yuksak madaniyatli olim", Normat Yo'doshevning "Cho'lpon Begali Qosimov talqinida", Abdug'afur Rasulovning "Begalining faoliyati betakror edi", Pirmat Shermuhammedovning "Jahoniy ko'lamdagi inson va olim" va boshqa bir qator maqolalar. Bularning barchasida olimning hayoti, ijodi, yashash tarzi va oilasi haqidagi qimmatli ma'lumotlar mavjud. "Sog'inch" qismida Ikrom Otamurodovning "Tafakkurning vatani", Ulug'bek Dolimovning "Milliy uyg'onish", Sotim Xolboevning "Jadidshunoslik ilmining soxibi", Shuxrat Rizayevning "Adabiyotshunosligimiz Hamleti", Mahmud Sattorovning "So'nggi jadid-yangi Nasafiy", Uzoq Jo'raqulovning "Qosimov fenomeni", Zulxumor Xolmanovanning "Buyuk xotira edi" va bir qancha olim hayotini yorituvchi maqolalardan tashkil topgan. Ushbu kitobning "Bag'ishlov" qismi ham mavjud bo'lib bu qism Suvon Melining "Sokin Jasorat", Shmirza Turdimovning "Kichik xotira", Ixtiyor Rizoning "Bu yo'llar", Abdulla Sherning "Begali Qosim o'g'liga", Barot Yarashning "Tulpor", Eshqobil Shukurning "So'ngi jadid" kabi maqolalaridan iborat. Bundan tashqari biz kitobning so'ngi sahifalarida Begali Qosimovning hayoti va ijodi bilan bog'liq bo'lgan muhim sanalarga duch

kelishimiz mumkin. Bu sanalar ustozning hayotidagi eng muhim kunlar sanalib, bizga u haqida yanada yaqindan malumot bilishimizga yordam beradi.

“So'nggi jadid qissasi” to'plamiga kiritilgan maqolalar orasida O.Sharafiddinov, A.Rasulov, Sh.Yusupov, N.Jabborov, B.Karimov kabi olimlar, A.Oripov, I.Otamurod, T.Nizom, E.Shukur, A.Sher kabi ijodkorlarning xotira maqolalari mavjud. Jumladan, O.Sharafiddinovning “So'nggi jadid qissasi”, a.Rasulovning “Begalining faoliyati betakror edi”, B.Karimovning “Sofdil muallim edi”, U.Jo'raqulovning “Qosimov fenomeni”, U.Normarovning “Qat'iyat” maqolalari B.Qosimovning hayot yo'li va ijodiy faoliyatiga oid keng ma'lumotlar beradi. Ushbu xotira maqolalar orqali olimning shaxsiyati, hayot yo'li, bolaligi, yoshligi, ko'rgan-kechirganlari, asarlarining yaratilish tarixi, ijodiy niyatlari to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Xullas, tadqiqotchining faoliyati adabiyotshunoslikda muayyan bahosini olgan.

Ishning obyekti. Ishda mavzuning mohiyatini yoritish maqsadida olimning “Milliy uyg'onish davri adabiyoti”, “Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik” “Maslakdoshlar” kitobi, “O'zbek tili va adabiyoti”, “Til va adabiyot ta'limi”, “Jahon adabiyoti”, “Sharq yulduzi” jurnallari, “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi va shuningdek, o'rni-o'rni bilan boshqa tadqiqotlari, matbuot nashrlarida e'lon qilingan maqolalarga tayanildi.

Ishning maqsadi. Begali Qosimov ijodi namunalari tahlili asosida uning milliy uyg'onish davri va jadid adabiyotiga qo'shgan hissasi, olimning ilmiy tadqiqotlarini o'rganishdan iborat.

Ishning vazifalari. Ishning maqsadidan kelib chiqqan holda tadqiqot vazifalari quyidagicha belgilandi.

- milliy uyg'onish davri va jadid adabiyoti tushunchalarini izohlash, ularga sharh berish;

- Begali Qosimovning hayoti va ilmiy faoliyatiga bir nazar tashlash;

- Begali Qosimov ijodining o'ziga xos jihatlari to'xtalish;

-Begali Qosimov jadid adabiyotini to'plovchi va nashrga tayyorlovchisi sifatida o'rganish;

-olimning tadqiqot usullari to'g'risida so'z yuritish;

-tadqiqotchining o'ziga xos ilmiy bayon uslubi va talqinlari xususida fikr yuritish.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv ishi natijalaridan adabiy tanqidchilik, o'zbek adabiyotshunoslarining nazariy masalalariga bag'ishlangan monografiya, risola, o'quv qo'llanma va shuning kabi tadqiqotlar yaratishga foydalanish mumkin.

Ishning tarkibi va tuzulishi. Ushbu ishimiz kirish, 2 bob, 5 fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Jami --- sahifani tashkil etadi.

I BOB.MILLIY UYG'ONISH DAVRI VA JADID ADABIYOTINI O'RGANISHDA BEGALI QOSIMOVNING O'RNI

I.1. Begali Qosimovning hayoti va ilmiy faoliyatiga bir nazar

O'zbek ma'rifatparvarlik va jadid adabiyotining tolmas tadqiqotchisi, ustoz va murabbiy, sinchikov olim sifatida adabiyotshunoslik ilmida nom qozongan davrning ziyolilaridan biri Begali Qosimovdir. “Begali Qosimov so'zi amaliga muvofiq keladigan haqiqatgo'y va to'g'riso'z, chin ma'nodagi millatparvar bir inson edi. Shu bois har qaysi tadbir yoki anjumanlarda o'zini ko'rsatib, kuyib-pishib gapiradigan, ammo so'zi amaliga teskari yuradigan soxta millatparvar kimsalarni yoqtirmasdi. Garchand ochiq gapirmasa ham, gohida jimgina o'tirgan sabr-bardoshli domlanning iztirobi yuzidan sezilib turar edi”⁵.

Begali Qosimov (1942-2004) – adabiyotshunos olim. 1942-yil 19-dekabrda Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumani Devov qishlog'ida tug'ilgan. Ilmiy-pedagogik faoliyati O'zbekiston Milliy universiteti o'zbek filologiyasi fakulteti bilan bog'liq: 1958-1963-yillarda talaba, 1963-1968-yillarda aspirant, 1966-yildan o'qituvchi, dotsent, professor, kafedra mudiri lavozimlarida ishlagan. 1968-yili “Mirmuhsin Shermuhammedov va uning adabiy muhiti” mavzuidagi nomzodlik, 1984-yili “XX asr boshi o'zbek poeziyasi masalalari 1905-1917” mavzuidagi doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildi.

Begali Qosimov o'zbek mumtoz va yangi adabiyoti muammolari bo'yicha tadqiqotlar yaratgan. Lekin ijodining mohiyatini milliy uyg'onish, marifatchilik adabiyoti muammolari, jadidlar harakati siymolari ijodi, taqdiri masalalari qiziqtiradi. Bu hol uning ilmiy asarlarida yaqqol aks etdi. U turkiy olamdagi uyg'onish, adabiy aloqalari bog'liqlik masalalarini o'rgandi va targ'ib etdi. Turkiy Otaturk kultur markazi faxriy a'zosi, Turkiya Otaturk tadqiqotlar markazi muxbiri a'zosi (1998) sifatida faoliyat yuritdi. Anqarada nashr etilgan 33 jildlik “Turk

⁵Баҳодир К.Софдил муаллим эди. / Сўнгги жадид қиссаси.- Т.: “Турон-Иқбол”, 2012, б- 201.

dunyosi adabiyoti” nashrining o’zbek adabiyoti bo’yicha yetakchi mutassaddisi edi.

Begali Qosimov O’zbekiston Respublikasi fan arbobi (1999) o’ndan ortiq darslik va qo’llanmalar, 10 nomda alohida asarlar, 200 ga yaqin ilmiy maqolalar muallifidir. O’zbekiston Milliy universiteti Milliy uyg’onish davri o’zbek adabiyoti kafedrasini asoschisi (1993), birinchi mudiri. Kafedraning keng xalqaro ilmiy-pedagogik aloqalari tan olingan. Olimning asarlari rus, turk, fransuz va tatar tillariga tarjima qilingan.

Begali Qosimovning hayot tarzi xarakterini uning yaqin do’stlari bo’lgan Abdulla Oripov va Ozod Sharafiddinov kabi hech kim bilmasa kerak. “Begali iqtidorli edi. Ko’p she’rlarni yodaki o’qirdi, mayinga ovozda qo’shiq aytardi, she’r yozardi, tarjima qilardi. U kam so’zlardi, o’ylab gapirardi. Domla vazxon emasmi, qo’llari, ko’zlari, imo-ishorasi “gapirardi”. Jaxli chiqsa, qo’llarini bot-bot paxsa qilardi, ichidan otilib chiqishga shay gaplarni yutishga, yuzaga chiqarmaslikka intilardi. Shirin xotiraga berilsa, ko’zlari tabassum qilardi”⁶- deya eslaydi Ozod Sharafiddinov.

Turli kitoblarda Begali Qosimov haqida aytilgan ta’riflarni, unga ijodkorlarning, zamondoshlarining bergan ta’riflarini o’qishimiz mumkin. Jumladan, Ozod Sharafiddinovning “So’ngi jadid qissasi” da Begalini “So’ngi jadid” deb ataydi. Yozuvchining o’zi shunday deydi “o’rtoqlari hazillashib uni shunday deb atashardi. Darhaqiqat, Begali Qosimov ilmiy faoliyatining hammasini to’laligicha jadidlar mavzuiga bag’ishlagan, ularning ma’rifatparvarlik sohasidagi, millatni uyg’otib hozirgi zamon sivilizatsiyasiga esh qilish yo’lidagi harakatlarini davom ettirgan edi. Deyarli yarim asr davom etgan bu ish jarayonida Begalining o’zi ham jadidlarning qay bir xislatlarini o’zlashtirib olgandek ko’rinardi. Shuning uchun “So’ngi jadid” laqabi unga juda mos tushgan edi”⁷.

Qissaning yana bir yerida Ozod Sharafiddinov Begalining bolaligini shunday xotirlaydi: “Begali bolalik kezlariidan sichkov, har narsaga qiziqadigan, har

⁶Шарафиддинов.О. Сўнги жадид қиссаси/ Сўнги жадид қиссаси.—Т.: “Турон-Иқбол”,2012, 94-б.

⁷Шарафиддинов.О. Сўнги жадид қиссаси/ Сўнги жадид қиссаси. —Т.: “Турон-Иқбол”,2012, 96-б.

narsani tag-tugi bilan chuqur bilib olishga intiladigan odam bo'lib o'sgan edi”⁸ – deydi yozuvchi.

Millatning qayta o'zini kashf etishi maktabdan boshlanadi va bunda til-adabiyotning o'rni va roli benihoya katta deb takidlagan edi Begali Qosimov.

Ushbu qissada Begali Qosimovning yaqin do'sti, tengdoshi, ijodda ham birga xizmat qilgan maslakdoshi, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov “ilmda qo'riq ochgan olim”, deya bevosita olimga murojaat qiladi. Qissaning aynan ana shu qismida olim bilan o'tkazgan qiziqarli damlarini yodga olib-hech esimdan chiqmaydi Begali bilan ikkalamizning ham jussamiz kichkina edi, nozik-qomatli o'spirinlar edik. O'sha mahaldagi universitet rektori bizlarga “Bolalarim, tag'in bir yil o'zlaringni chiniqtirib kelsalaring yaxshi bo'lardi, hali judayam kichkina ekansizlar”-degandi. Biz esa “yo'q domla, biz o'qigani keldik, o'qishga qurbimiz, quvvatimiz yetadi-deb turib olganmiz. Xullas, olim haqida do'stlari, zamondoshlari xotirasiga eslasa zavq bilan eslagulik xotiralar qoldi. Begali Qosimovning umri samarali bo'ldi. Undan boy adabiy, ijodiy meros, yaxshi farzandlar, yaxshi xotiralar qoldi. Aslida shuning o'zi tuganmas boylik. Begali Qosimov xotirasi faqat uni tanigan-bilganlargina emas, uning o'zini ko'rmagan, ammo kitoblarini o'qigan yangi avlod uchun ham aziz bo'ldi.

Ijodkor Begali Qosimovning oilaviy masalalariga ham to'xtalib o'tadi va jumladan, shunday deydi: “Begalining uylanish masalasida ham muammoli vaziyatlar, ikki o't orasida qolib qiynalish kabi xolatlar ham ko'p bo'lgan ekan. Lekin Begali Matlubaxon bilan umrining oxiriga qadar yaxshi yashadi, baxtli hayot kechirdi. Ular to'rt farzand, ikki o'g'il, ikki qiz ko'rishdi”⁹. Farzandlarining hammasi oily ma'lumotli mutaxassislar bo'lib yetishdi va hozir turli joylarda el-yurt manfaati yo'lida xizmat qilishmoqda.

Ijodkorning ilmiy va pedagogik faoliyati, u yaratgan asarlar hamda “So'nggi jadid qissasi” to'plamiga keltirilgan u to'g'risidagi fikrlargatayangan holda shunday

⁸Шарафиддинов.О. Сўнги жаҳид қиссаси/ Сўнги жаҳид қиссаси. –Т.: “Турон-Иқбол”,2012, 100-б.

⁹ЎлжабоевУ.Хотира қаридаги изтироблар/ Сўнги жаҳид қиссаси.-.:Т. “Турон-Иқбол”,2012, 43-б.

xulosa chiqarish mumkinki, olim mazmunli, ibratli va samarali hayot kechirdi, avlodlarga bebaho ma'naviy meros qoldirdi. Zero, uning do'stlaridan biri bo'lgan Mahmud Sattorov tili bilan aytganda- "Begali Qosimov har tomonlama halol, farishtaday pok, insof-diyonatli, to'g'ri odam edi. Uning ilmiy, ijodiy, insoniy olami nihoyatda musaffo va munavvar edi. Bu olamning ufqlari keng, istiqboli bepoyon edi. O'zbekning ulug' o'g'lonlaridan, turkiylarning mashxur ziyolilaridan yana biri oxista yorug' olamni tark etdi. So'ngi jadid oramizdan ketdi. Ulug' nasafiylar safiga yana bir muxtaram zot qo'shildi. Uning muborak ism-sharifi Begali Qosimov"¹⁰ edi.

I.2 Olimning asarlarining manbaalari va tadqiqot usullari.

Badiiy ijodda iste'dod qadrlanadi. Iste'dod egasi yozgan she'rlar, dostonlar, hikoya va romanlar, albatta, o'z uslubi bilan alohida ajralib turadi. Xuddi shuningdek, adabiyotshunoslikda ham iste'dodlar o'z so'zi va ilmi yo'liga, o'z uslubi va nazariy qarashlariga, o'z pozitsiyasi va maktabiga, maslakdoshlariga, ustoz va shogirdlariga, umuman, o'zining ijod olamiga, betakror ijodiy biografiyasiga ega bo'ladi. Professor Begali Qosimovning adabiy-ijodiy, ilmiy-pedagogik faoliyatiga nazar tashlaganda, mazkur sifatlarning aksariyatiga guvoh bo'lish mumkin. Zotan, olimning umr yo'li, ijodiy faoliyatini kuzatsak, ilm-ma'rifat kishisi, agar chin dildan istasa qisqa vaqt ichida ham ulkan ishlarni amalga oshirishi mumkinligiga guvoh bo'lamiz. Begali Qosimovdan qolgan salmoqli ilmiy-adabiy meros shunday xulosa chiqarishga imkon beradi.

Begali Qosimov-xalqning dardini o'z dardi deb biladigan, tarix haqiqatini aytib, uni kelajakka xizmat qildirishga bel bog'lagan atoqli va ardoqli olimlarimizdan edi. U olimlik bilan munaqqidlikni ajabtovur uyg'unlashtiraolgan kishi: bir yoqda adabiyot tarixini chuqur tahlil etuvchi salmoqdor kitoblar, ikkinchi yoqda esa qator adabiy-tanqidiy maqolalar, adabiy jarayonni kuzatgan, dolzarb

¹⁰Сатторов М. Сўнгги жадид – янги насафий/ Сўнгги жадид қиссаси. –Т.: "Turon-Iqbol",2012, 43-б.

masalalardan baxs etuvchi maqola, chiqishlar Begalining har bir kitobi va hatto har bir jiddiy maqolasi ham yangi qarashlar, dadil fikr-mulohaza, konsepsiyalarni ko'tarib chiqishi bilan jamoatchilik diqqatini tortgan edi. Tafakkurimiz bir qadam olg'a siljishiga ko'maklashdi.

Begali o'zbek adabiyotini Ahmad Yassaviy, Yusuf xos Hojiblardan tortib, to hozirgi avlodigacha yaxlit, bir butun deb biladi va ana shu ming yillik adabiyotni birday o'rganib, o'z qarashlarini bayon etadi. Uning tadqiqotlarini o'qib, mulohazalarini tinglar ekanmiz, Xorazmiy va Sayfi Saroyi, Lutfiy va Navoiy, Bobur va Mashrab, Ogahiy va Yusuf Saryomiy ijodi xususida, ularning hali o'rganilmagan asarlari haqida yangi, toza fikrlaridan bahramand bo'lamiz. Ayni ana shu fazilat Begali Qosimovga XX asr boshlaridagi adabiyotni puxta va batafsil tadqiq etish imkoniyatini bergan edi. Chunki bu davr har jihatdan murakkab bo'lib, g'oya, tafakkur, adabiy-estatik qarashlar, an'analar yo'nalishida, kurash va yangilanishlarga to'la rux va jismlarda, tushuncha va qalblarda inqilob yasagan edi. Begali Qosimov avval M.Shemuhammedov, A.Avloniy, Siddiqiy Ajziy kabi shoirlar ijodiga bag'ishlangan alohida-alohida risola va maqolalarida, so'ngra "Izlay-izlay topganim", "Salom, kelajak" nomli monografiyalarida bu davr adabiy muhitini o'rganib, shuni isbotladiki, milliy uyg'onish, inqilobiy mavzu ayrim yakka olingan adiblar ijodiga xos bo'lmay, balki butun bir avlod shoir-yozuvchilar merosining mohiyatini belgilab bergan edi. Olim hali merosi o'rganilmagan qator shoir-yozuvchilarning asarlarini izlab topib nashr ettirdi, adabiyot tarixini noyob obidalar hisobiga boyitdi, to'ldirdi.

U mumtoz adabiyot deb atalmish azim dengiz mavjlarini nozik his qila olgan, bu dengiz tubidagi javohirlar koniga qadar sho'ng'ish va topildi qazzatini tuyish sharafiga noil bo'lgan katta adbiyotshunos edi. Begali Qosimovning Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy, Fuzuliy, Bobur, Mashrab, Turdi Farog'iy, Ogahiy kabi sharq mumtoz adabiyotining faxri bo'lgan o'nlab adiblar haqidagi tadqiqotlarida yuqoridagi fikrimiz uchun yetarli asos bor.

Ustozning arxivida saqlanayotgan manbaalar orasida Alisher Navoiy ijodiga doir ishlarning bizga ma'lumlari o'ndan ziyod. "Alisher Navoiy", "Navoiy " Xamsa"si", "Xamsa" dabadiiy tasvir", "Navoiyda muammo", "Navoiy asarlarida millat va milliylik masalalari", "Xalq ruhiyati me'mori" singari tadqiqotlardan ma'lum bo'ladiki, Begali Qosimov ilmiy faoliyatining salmoqli qismi ulug' shoir ijodini o'rganish va targ'ib etishga qaratilgan. Ushbu mavzudagi u amalga oshirgan ishlar faqat mumtoz adabiyotni o'rganish nuqtayi nazaridan emas, balki, adabiyot nazaryasi, jahon adabiyoti, milliy ma'naviyat, adabiy ta'sir, ijod falsafasi jihatidan ham ahamiyatga molik.

Begali Qosimov o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida biografik, analitik tahlil, qiyosiy, statistik, germenevtik, sotsiologik metodlar imkoniyatidan foydalangan holda milliy uyg'onish davri ijodkorlari merosini o'rgangan.

Olimning faoliyatida biografik metod yetakchilik qiladi. Chunki u jadid ijodkorlari nomini ilm-fanga ma'lum qiladi, ularning hayoti va ijodiy yo'li to'g'risida ma'lumotlar beradi. Milliy uyg'onish va jadid adabiyoti namoyondalarining adabiy, madaniy, mafkuraviy va pedagogik qarashlari, yozgan asarlari to'g'risida eng muhim ma'lumotlar beriladi. Jumladan, biz aynan ustoz Begali Qosimov tufayli ularning hayot yo'li va faoliyatini bilib olgan fidoyilarimiz anchagina. Bulardan Mahmudxo'ja Behbudi, Siddiqiy Ajziy, Fitrat va yana bir qancha ijodkorlarni keltirishimiz mumkin. Ustoz Begali Qosimov Behbudini bizga o'zining "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti", "Maslakdoshlar" kitoblari orqali tanitdi. To'g'ri biz bundan oldingi darsliklarda ham Behbudi haqida ma'lumotlarga ega bo'lgan edik, lekin uning hayoti, faoliyati, jadidchilikdagi o'rni va xalq uchun qilgan juda ko'p xizmatlaridan bexabar edik. Biz ko'proq ana shu darsliklar orqali bobomizning aslida kim bo'lganliklarini bilib oldik. Biz shu paytgacha Behbudiyni qanday o'lim topganligi haqida to'liq ma'lumotga ega emas edik, lekin bugun aynan olim B.Qosimov tufayli buni yorqinroq bilib oldik. Yoinki Siddiqiy Ajziy haqida biz bundan oldin ham umuman ma'lumotga ega emas edik. Uning "Tanlangan asarlar" i va biz yuqorida sanab o'tgan "Maslakdoshlar" kitobi orqali juda ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldik.

Xuddi mana shu kitoblar orqali Fitratning ham hayoti, oilasi, qayerlarda o'qib, qayerlarda yashaganligi, qanday darsliklar yaratganligini bilib oldik. Biz ustozning darsliklari tufayli tanishib o'tgan darsliklar faqat bugina emas, bu istiqlol fidoyilari juda ko'p. Bugun biz olim tufayli mana shunday qimmatli manbaalarga, ma'lumotlarga ega bo'ldik, buning uchun ustoz Begali Qosimovdan bir umrga minnaddormiz.

Ustoz Begali Qosimovning mana shunday istiqlol fidoyilarining hayotini yoritishga bag'ishlangan yana bir asari "Izlay-izlay topganim" edi. Bu asar 1983-yilda chop etilgan. Ustoz bu asarni bekorga "Izlay-izlay topganim" deb nomlamagan. Olim izlay-izlay Ismoilbek Gaspirali, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Munavvarqori, Sidqiy xondaliqiy, Siddiqiy Ajziy, Ashurali Zohiriy, Tavallo, Xislat, Miskin, olamiga kirib bordi. Ularning butun boshli hayot yo'lini bugungi kitobxonga tanitdi.

Begali Qosimovning XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning ilk choragida adabiy –tarixiy jarayon bo'yicha yirik mutaxasis bo'lgani, bu davrga doir muhim ilmiy muammolar borasida tadqiqotlar yozgani, yuzdan ortiq adabiy siymoni o'z ilmiy konsepsiyasi nuqtayi nazaridan o'rgangani, qator adabiy manbalarni nashrga tayyorlagani, ko'plab ijodkor biografiyasini tiklagani, bu yo'nalishda ilmiy-tadqiqot maktabi yaratgani ko'pchilikka ma'lum. Uning "Izlay-izlay topganinm", "Maslakdoshlar", "Ismoilbek Gaspirali", "Milliy uyg'onish", "Uyg'ongan millat ma'rifati" asarlari, shubhasiz, XX asr o'zbek adabiyotshunosligining yutug'idur.

Olimning adabiy-tarixiy jarayonga qo'shgan hissasi bular bilan cheklanmaydi. Shubhasiz, hozirgi adabiy jarayon, adabiy aloqalar bo'yicha qilgan ishlari ham ayni yo'nalishlar silsilasida o'z o'rniga ega. Darhaqiqat, ilmiy-adabiy jamoatchilik professor Begali Qosimovni Sharq poetikasi va matnshunoslik sohasining yirik mutaxasisi sifatida biladi. Uning adabiy jarayon muammolariga doir nashr etilgan va ba'zi nashr ettirishga ulgurmagan ishlari uning zamonaviy adabiyotni ham keng ko'lamda, teran usullarda tahlil-u talqin etilganini ko'rsatadi. Chunonchi, G'.Karimov, A.G'ulomov, O.Sharafiddinov, Sh.Yusupov, L.Qayumov, H.Muhammadxo'jayev, A.Kattabekov singari adabiyotshunoslar,

U.Nosir, A.Majidiy, G'.G'ulom, A.Oripov, R.Parfi, M.Ali, H.Shams, J.Kamol kabi shoir va yozuvchilar haqidagi tadqiqotlari, adabiy jarayon muammolariga doir "Hozirgi o'zbek adabiyotiga bir nazar", "Cho'lpon haqida roman" kabi tadqiqotlari shunday fikrga kelishimiz uchun to'la asos beradi.

Sadoqatli, oqibatli bu inson ustози professor G'.Karimov haqida bir emas, beshta maqola yozgani ustoz-shogird munosabatlariga ibrat timsolidir. Bu maqolalar orasida, ayniqsa "Umr mazmuni" deb nomlangan tadqiqotni alohida takidlash joiz. Ushbu maqola orqali o'quvchi G'.Karimov shaxsiyati, ilmiy faoliyati, ilmiy nazariy asarlari tarixiga doir aniq, mantiqli xulosalarga boy, yaxlit ma'lumotga ega bo'ladi. Begali Qosimovning Abdulla Oripov she'riyati haqidagi maqolalari jamlab qaralsa, ushbu tadqiqotlar ham poetika, ham milliy ma'naviyat tarixi, ham falsafiylik, ham xronologik jihatdan bir butun tizimga ega ekani ma'lum bo'ladi. "Abdullaning she'rlari, -deb yozadi B.Qosimov – zamonning har qanday sinovlariga javob bera oladi. Ta'kidlash joizkiki, u hatto sho'ro zamonida ham insoniyat mudom izlayotgan adabiy haqiqatni ramzlar, timsollar vositasida ayta oldi. Shoir ushbu haqiqat mazmun-ma'nosini idrok va talqin etar ekan, mutlaqo original usul va yo'llar bilan ish ko'radi. Ko'pincha inson ruhining kamalakdek rangin holatlaridan kelib chiqadi". Ustoz betakror shoir Rauf Parfi haqida 70-yillardayoq yozgan maqolasida shoirning "Samarqand osmonida", "Cho'li iroq", "Yomg'ir yog'ar" kabi she'rlarini o'tkir poetik did, fundamental nazariy qarashlar, negizida o'ta nozik tahlil etib, shunday xulosani ilgari suradi: "Shoir oz so'z bilan ko'p fikr anglatishga urinadi. Bu hol so'zning barcha ma'no va imkoniyatlarini ishga solishni talab qiladi. Natijada biz odatlangan grammatik quruluşlar buziladi, bizga notanish tamsil va tafsillar paydo bo'ladi. Bu yerda assotsiatsiya, biror so'z yoki holatning bamisli zanjirli reaksiya singari, tuyg'u yoki fikrlar silsilasini yechib yuborishiga alohida ahamiyat beriladi". "Hozirgi o'zbek adabiyotiga bir nazar" nomli tadqiqotida XX asr boshidan so'ngiga qadar bo'lgan o'zbek adabiyoti namunalarini epik, lirik, dramatik turlar nuqtayi nazaridan tekshirgan olim Fitrat, Qodiriy, Cho'lpondan Abduvali Qutbiddin, Eshqobil

Shukur, Salim Ashurgacha bo'lgan ulkan tadrijiy yo'nalishi haqida salmoqli xulosalarni ilgari suradi.

Qiyosiy metod ham olim tadqiqotlarida muhim o`rin tutadi. Begali Qosimov jadidchilik harakatini keng ko'lamda, butun ta'sirlanuv omillari, yo'l boshchilari, asosiy g'oyalari, geografik ko'lam, mashhur shaxsiyatlarga ta'kid etgan yirik mutaxassis edi. O'zbek ma'rifatparvar adiblari ijodini Jamoliddin Afg'oni, Ismoil Gaspiraligacha, Shahobiddin Marjoniydan Mag'jon Jumaboygacha, Narimon Narimonovdan Zaki Validiy To'g'ongacha bo'lgan oraliqdagi adabiy – ijtimoiy qarashlar bilan bema'lol qiyoslay oladi.

XX asrning 80-yillarida yozgan maqolalarida u o'zbek-tatar adabiy aloqalarini qadim tarixidan yangi davrgacha bo'lgan qisqacha tarixini qamrab olgan. Qozon universiteti kutubxonasidan 1527-yili Boburning o'g'li Komronga yozgan maktubini topib ilmiy muomalaga olib kiritgani ma'lum. O'rni kelganda Begali Qosimov tadqiqotlarida Rizouddin Faxriddin, Abdulla To'qay, Abdurashid g'oz, Ibrohim, Aliasqar Kamol, Zohir Begiyev va boshqa ko'plab tatar ma'rifatchilari ijodini o'zbek adabiyoti bilan qiyoslaydi.

Olimning adabiy aloqalarga doir ilmiy maqolalari, ulardagi qiyoslar XX asr avvalidagi adabiy-ijtimoiy harakatchilikning ildizini ochishga, adabiy hodisaning asl mohiyatini anglashga yordam beradi. Mahmudxo'ja Behbudiy haqida fikr yuritib, domla, albatta, Gaspiralini, ularning mushtarak g'oyalarini, uchrashuvlarini yodga oladi. Ustozning “Ismoil Gaspirinskiy va Mahmudxo'ja Behbudiy” maqolasi shunday jiddiy qiyosiy tahlillar hosilasidir. Begali Qosimov 1991-yili 18-23-mart kunlari Semfiropolda bo'lib o'tgan Gaspirali tavalludining 140 yilligiga bag'ishlangan xalqaro anjumanda qatnashdi va o'nlab yangi ma'lumotni anjuman tafsilotlari bilan uyg'unlikda “Ismoilbek Gaspirali” (Tanishtirish yo'lida bir tajriba) risolasida bayon qildi. Ismoil Gaspirali ijodini Begali Qosimovdan ko'ra teranroq, chuqurroq tadqiq etgan ikkinchi bir olimimiz yo'q.

Begali Qosimov turli millatga mansub dunyo olimlari bilan ijodiy-ilmiy hamkorlik qildi. Adabiy-ilmiy aloqalar olimning xorijdan o'zbek

adabiyotshunosligiga olib kirgan yangiliklari va o'zbek olimining xorijiy mutaxasislarni tanishtiruv yo'lida qilgan xizmatlari tarzida ikki yo'nalishda bo'ladi. B.Qosimov ijodiy merosida har ikki jihat ham yorqin ko'rinadi. Ustoz O'zbekistondagi arxiv va noyob fondlarni juda yaxshi bilar edi. Sarg'aygan gazeta va jurnallarning changini yutib, qoraytirilgan tarixini ilm ziyosi bilan yoritdi, tarixiy shaxslarning millat fidoyilari ekanini dalillar bilan isbotladi. Shuningdek, ilmiy safarlarda bo'lib, Qozondagi kutubxonalarda ishladi, Berlining Gumbold universiteti qoshidagi nodir fond manbaalarini o'rgandi. Begali Qosimov maqolalari Fransiya, Turkiya, Rossiya, Afg'oniston, Qozog'iston va boshqa xorij mamlakatlari nashrlarida bosildi. Yirik adabiyotshunos, o'zbek adabiyoti va madaniyatining bilimdoni sifatida xorijlik olimlari tomonidan e'tirof etilgan ustoz olimdan bugungi avlod, shubhasiz, ibrat oladi. Zotan, professor Begali Qosimovning avlodlarga qoldirgan ilmiy-adabiy merosi hali uzoq yillar ma'rifat ziyosini sochib turadi.

Ma'lumki, analitik tahlil badiiy asarlarning mazmun-mohiyati, g'oyaviy qimmat, ijodkorlarning poetik mahoratiga oid tahliliy qarashlari aks etgan bo'ladi. Ushbu tahlil metodi asosida olim jadid ijodkorlarining asarlarini tahlil qiladi, ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini ochib beradi. Olim Fitrat, Ajziy, Behbudiy, Avloniy kabi qator ma'rifatparvar ijodkorlar haqida so'z yuritarkan, ular asarlarining mazmun-mohiyatini tahlillar asosida ochib berishga intiladi.

Jumladan, Fitratning "Munozara" asari to'g'risida "Yo'l ocherkini eslatuvchi bu asarda Buxoroning maishiy-siyosiy turmush manzaralari dunyo ko'rgan bir kishining nigohi orqali tasvir etiladi"¹¹, deb yozsa, Avloniy she'rlaridagi badiiy obrazlarni tahlil qilarkan ekan "Bu obrazlarning aksariyati o'zlarining ilgarigi ma'nolaridan butunlay uzoqlashgan va zamon talablariga mos yangi mazmun, o'zga ohang kasb etgandir"¹², deya yozadi. Xullas, ijodkorlar asarlarining tahlili orqali ularda aks etgan mazmun-mohiyatni har tomonlama chuqur ochib yebirishga intiladi.

¹¹Qosimov B. Аллома адиб. / Фитрат А. Чин севиш. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – Б. 7.

¹²Qosimov B. Оқ тонглари орзулаган шоир. / Авлоний А. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 1998. –Б. 62.

Germenevtik tahlil metodi asosida u ijodkorlar badiiy merosini talqin etishga urinadi. Begali Qosimovning talqinlari o'ziga xosligi boshqalardan ajralib turadi. Jumladan, shoir Abdulla Avloniyning "Gul" radifli g'azalini tahlil etar ekan, "Bu yerdagi gul an'anaviy ma'shuqa emas. Subhidamda yuziga qo'ngan shabnam (durdona ko'zyoshi) qat-qat alvon yaproqlar (bag'ri qon bo'lishi) oshiq iztiroblarini ifoda etmaydi. Bu yerda gap muhabbat haqida emas: gul g'urbat va mashaqqatdan za'faron bo'lgan yuragini chok etib insonga ko'rsatadi... Beixtiyor xor (tikan) mastamlakachi istibdodini, bag'ri qon gul esa jafokash Turkistonni eslatadi"¹³, deb yozadi.

Xulosa qilib aytganda, Begali Qosimov tadqiqotlari uning to'g'risida sinchkov olim, so'z qadrini yuksak tutgan alloma, jadid adabiyotining xassos bilimdoni sifatida tasavvur uyg'otadi.

¹³Қосимов Б. Оқ тонглари орзулаган шоир. / Авлоний А. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 1998. –Б. 60.

II BOB. BEGALI QOSIMOV MILLIY UYG'ONISH VA JADID ADABIYOTIGA OID TADQIQOTLARINING ILMIY-MA'RIFIY- AHAMIYATI

II.1. Olimning tadqiqotlarida milliy uyg'onish va jadid adabiyoti dolzarb masalalarining yoritilishi

Ustoz va muallim Begali Qosimov xalqimizning milliy istiqlol uchun kurashida yorqin sahifani tashkil etgan jadid adabiyotini o'rganishga butun umrini baxsh etdi, o'zi ham jadidona fidoyilik bilan yashadi, ijod qildi, ulug' ma'rifatchi insonlarning maqsadi qismatiga, orzulari hayoti mazmuniga aylandi. U bugungi kun jadidi edi.

Ma'lumki, XIX asr oxiri XX asr boshlari O'rta Osiyo xalqlari tarixiga "milliy uyg'onish davri" bo'lib kirgan. Bu davrda amal qilgan ijtimoiy-siyosiy va ma'daniy-adabiy harakat muammolarini o'rganish hozirgi kunda ham davom etmoqda. Zero, jamiyat taraqqiyoti, insonning o'zligi, vatan mustaqilligi g'oyalari bu harakatning ijtimoiy ideali bo'lib, eskirmaydigan boqiy qadriyatdir. Bu murakkab, ko'p qirrali jarayonning ta'lim, badiiy ijod, san'at, matbuot vaboshqa sohalaridagi yangicha ko'rinishlari, milliy va ummumbashariy mazmundagi insonparvarlik qarashlari bugungi tadqiqotlarda tobora yorqinroq ochilmoqda. Bu jarayon- "jadidchilik harakati" sifatida keng yoyilib, uning faoliyat doirasi, voqe bo'lish xususiyatlari, o'ziga xosligi alohida diqatga loyiqdir. Adabiyotshunos professor Begali Qosimovning "jadidchilik yakrang emas, u Turkiston Buxoro, Xivada turli miqyos va ko'lamda namoyon bo'lganligi" haqidagi fikrlarida ana shu turfalik nazarda tutilgan. Bu hol jadidchilikning asosiy yo'nalishlaridan biri adabiyotga ham daxldor.

Avvalo, shuni aytish kerakki, qayd etilgan davrdagi adabiyot qo'sh nom bilan atalib, "jadid adabiyoti" ikkinchi nomidir. Muhimi, "milliy uyg'onish davri adabiyoti" va "jadid adabiyoti" tushunchalarining mohiyati aynan bo'lsa ham istemoldagi darajasi har xil. Chunonchi, ikkinchi nom Turkiston, Buxoro

ijodkorlariga nisbatan faolroq qo'llaniladi. To'g'ri, o'zbek jadid adabiyoti, asosan, mumtoz adabiy tajribalar, qisman jahon estetik tafakkuri zahirida shakllandi va takomillashdi. Bu xususiyat Xorazm adabiy muhiti namoyondalari ijodi uchun ham mushtarakdir. Afsuski, Xorazmdagi jadidchilik haqidagi qator tadqiqotlarda asosiy e'tibor ijtimoiy-siyosiy masalalarga qaratilib, jadid adabiyoti na'munalariga yetarli baho berilmadi.

Xulosa qilib aytganda, jadid adabiyotini hududlar kontekstida qiyosiy-tipologik xolis o'rganish uning ayrim bahsli jihatlariga oydinlik kiritishga, ijtimoiy-estetik mohiyatini mustaqillik mafkurasi asosida anglash va qayta baholashga hamda o'sha davr adabiy jarayoni haqidagi mavjud tassavvurlarni kengaytirishga imkon beradi. Bu o'rinda Xorazm adabiy muhiti, shubhasiz, tadqiq obyektlaridan biri bo'la oladi.

Tarix fanlari nomzodi-Sotim Xolboyev "Jadidshunoslik ilmining sohibi" maqolasida ustoz Begali Qosimovni shunday eslaydi-"jadidshunoslik ilmining sultoni, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi va O'zMUning "Yuksak xizmatlari uchun" unvonlari sohibi, filologiya fanlari doktori, professor Begali Qosimov edi. U haqiqiy ko'ngli va qalbi pok, samimiyati o'ta yuksak, olim-u odamiylik rutbasini mukammal egallagan, mening eng yaqin va qadrdon, sirdosh do'stim hamda shuning bilan birga o'ta mehribon, maslahatgo'y ma'naviy ustozim edi"¹⁴.

Sotim Xolboyevning so'zlaridan shuni anglashimiz mumkinki, Begali Qosimov o'z shogirdlari uchun ham ma'naviy ota, ham haqiqiy ilm maktabi bo'lgan ekan. Haqiqatdan ham Begali Qosimov yuksak istedod, bilim sohibi edi. Unda boshqalarga ibrat bo'la oladigan o'ta chuqur va teran ilmiy tafakkur hamda yuksak darajada ilmiy munozara yurita olish qobiliyati bor edi. Shuningdek, zamondoshlarining unga bildirgan aksariyat fikrlarida ustoz Begali Qosimovni "ilmda juda kamtarin edi, sira maqtanmasdi"¹⁵-deb qayta-qayta takrorlashadi.

Begali Qosimov jadidshunoslik ilmining asoschisi edi. U bir qancha jadidshunoslik maktablariga asos solib, juda katta jasorat bilan uni rivojlantirdi.

¹⁴Холбоев С. Жадидшунослик илмининг соҳиби/ Сўнгги жадид қиссаси. –Т.: "Turon-Iqbol", 2012, 192-б.

¹⁵Холбоев С. Жадидшунослик илмининг соҳиби/ Сўнгги жадид қиссаси. –Т.: "Turon-Iqbol", 2012, 194-б.

Olimning bevosita jadidchilik orqali millatni o'zligini anglatish, milliy-ozodlik g'oyasi va mafkurasini shakllantirishda qo'shgan ilmiy-ijodiy hissasi katta bo'ldi. Olim bu yo'lda juda katta qiyinchiliklarni boshidan o'tkazdi. O'zining qariyb qirq yillik hayotini jadidchilik harakatiga baxshida etdi. Jadidchilik pado bo'lishining sabab vaqibatlarini, uning maqsadi va mohiyati, xarakteri va xususiyatlarini hatto, geografik chegarasini to'la ochib berdi. Bugungi kunda biz aynan ustoz Begali Qosimov tufayli jadidshunoslikning qanday paydo bo'lganligini, qay maqsadlar ko'zlanganligini va qayerlarga tarqalganligini bilib oldik. Bundan tashqari biz Ismoil Gaspirali ham ustoz tufayli tanidik. Ustoz jadidchilik harakatining otasi Ismoil Gaspirali merosini chuqur o'rganib, o'zbek gaspirashunosligiga asos soldi. Gaspirali o'zbek olimlari va ziyolilariga tanitdi.

Eng quvonarlisi shuki, ustoz Begali Qosimov jadidlarga nisbatan barcha komunistik ayblovlarni to'la fosh qildi. Umuman jadidchilik harakati tarixi, madaniyati, adabiyoti va san'ati, matbuoti va kitobati, matbaasi, madaniy-ma'rifiy uyushmalari bilan bog'liq umumiy ilmiy-nazariy va konseptual masalalar majmuini yaratib berdi. U o'ziga munosib, o'z izdoshlari-shogirdlari va muxlislaridan katta bir ilmiy-ijodiy guruhni tarbiyalab ketdi.

Begali Qosimov "Milliy uyg'onish va jadid adabiyoti" ni o'rganish borasidagi faoliyatining quyidagi qirralarini takidlash mumkin.

1. Milliy uyg'onish va jadid adabiyotining to'plovchisi va matnshunos.

Jadidlar uchun adabiyot oinayi millatdur, u faqat yurak zamzamasi emas, tafakkur jilosi bo'lmog'i lozim, u faqat hislarga emas, ong va sezim taraqqiyotiga ta'sir o'tkazmog' darkor. Buning uchun adabiyot va ijod ahli xalq dardi bilan, uning orzu-armoni bilan yashamog'i kerak. Begali Qosimov ham bugungi kundagi kitobxon uchun qimmatli manbaa bo'ladigan jadidchilikka oid ma'lumotlarni to'plab qoldirdi. Biz aynan ustoz Begali Qosimov tufayli jadidchilik maktabi bilan tanishdik. U tufayli jadid adabiyotiga oid qator darsliklar yetib keldi. Ustozning xizmati bugungi kunda ham yuksak qadrlanadi.

Begali Qosimov haqiqiy matnshunoslardan bo'lgan. Tilga, xatga ayniqsa, islox qilingan eski o'zbek yozuviga nihoyatda ehtiyotkorlik, sichkovlik bilan

yondashgan olimlardan. Har bir so'zni o'qir ekan, uni o'z davri tiliga xos talaffuz qoidasini, Grammatik qurilishini asliday berishga muvaffaq bo'lgan. Bu davr tili aslida eski o'zbek tiliga nisbatan (yozuvi ham) butunlay farqlidir. Milliy uyg'onish, jumladan jadidchilik davri tilini tilshunos olim Iristoy Qo'chqortoev "O'zbek klassik adabiy tilidan hozirgi o'zbek adabiy tiliga o'tish deb baholash mumkin"¹⁶ degan edi ustoz.

Olim matnni sharhli o'qir ekan, bu davr manbaalarida o'g'uz tillariga xos so'zlar, grammatik shakllar, talaffuz xususiyatlari ko'pligini ta'kidlaydi: ev (uy), chujuq (bola), vermek (bermoq), vor (bor), dufrog' (tuproq), bing (ming), edmaz (etmas), og'lamoq (yig'lamoq) vaho kazolar.¹⁷

Begali Qosimov o'z davri qo'lyozma, jumladan isloh qilingan yozuv manbaalarini o'qib, tarixni anglashda, har bir tarixiy voqea-hodisani yoritishda, eng ko'hna, dastlabki manbaga asoslangan holda mulohaza yuritgan edi. Olim yetuk filolog sifatida ba'zi tarixiy ma'lumotlarni til faktlariga asoslab, haqiqiy tarixchilar ayta olmagan ma'lumotlarni davr holatidan kelib chiqib isbotlay oldi. Uning Amir Temur tarixiga bag'ishlangan "Vatanning daho xaloskori" (O'zbekiston adabiyoti va san'ati, gazetasi. 1996, 202-son), "Moziyga nazar", "Tariximiz nega soxtalashtirildi", "Qadrlamoq uchun anglamoq kerak" va boshqa bir qator haqiqiy tarixni yorituvchi matn tahlili bilan bog'liq ilmiy mulohazalar bunga isbot bo'lishi mumkin. Professor Begali Qosimov matnshunoslik sohasining yetuk, bilimdon tadqiqotchisiga aylangan edi.

Vatanni shunchaki sevib bo'lmaydi. Uning dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Bu ham kifoya emas, chinakkam muxabbat uni yana ham go'zalroq, yana ham mukammalroqqilishga undashi kerak. Bu esa kurash demakdir. (Begali Qosimov)

2. Olim jadid adabiyotining ko'plab namoyondalarini ilm-fanga tanitdi:

Jadidchilik harakati jadid adabiyotining asoschilari bo'lgan yirik iste'dod egalari jadid adibi, shoiri, dramaturgi va san'ati arboblarni ham

¹⁶ Кучкортоев И. Миллий уйғониш. Тўплам. – Т, 1993, 8-б.

¹⁷ Косимов Б. Маслакдошлар/ Шоир хотирасини излаб-Т.: «Шарқ», 1991. – Б. 40-67.

tarbiyaladi. Jadidshunos, taniqli olim, professor Begali Qosimovning ta'kidlashicha, ularning 1905-1917-yillarda adabiy-madaniy harakatchilikda qizg'in faoliyat ko'rsatganlari saksondan ortiq bo'lgan. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919), Sayidahmad Siddiqiy Ajziy (1864-1927), Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931), Abdulla Avloniy (1878-1934), To'lagan Xo'jamyorov-Tavallo (1882-1939), Sidqiy Xondaliqiy (1884-1934), Avaz O'tar o'g'li (1884-1919), Muhammadsharif So'fizoda (1869-1937), Abdurauf Fitrat (1886-1938), Sadriddin Ayniy (1878-1954), Abdulvohid Burxonov (1875-1934), Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889-1929), Abdulla Qodiriy (1894-1938), Abdulhamid Cho'lpon (1897-1938) va boshqalar shular jumlasidandir.

3. Milliy uyg'onish va jadid adabiyoti namoyondalari hamda mazkur davrning dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy faktlarni arxiv materiallarini tiklash uchun say-harakatlar qildi.

Milliy uyg'onish va jadid adabiyoti namoyondalaridan ustoz "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" kitobida keltirilgan ulug' mutaffakirlarimizning hayot yo'li, ijod davri, boshidan o'tkazgan mashaqqatli kunlari haqida ma'lumot berib o'tadi. Unda Xiva xonligida, Buxoro amirligida va Qo'qon xonligida ijod qilganlarning har biri haqida alohida-alohida to'xtalib ma'lumot berib o'tadi. Xullas bu ulug' mutaffakirlarimizning o'quvchilarga qaytarilishi haqiqatning tiklanishidan tashqari adabiyotimizning XX asrdagi qaddi-bastini keng ko'lamda ko'rish imkonini berdi. Xususan, milliy poetic tafakkurning qaynoq bir bulog'ini qayta kashf etish va undan baxramand bo'lish baxtiga erishtirdi. Eng muhimi, adabiyotimizning hamisha xalq dardi bilan yashaganligiga, eng og'ir zamonlarda u bilan yonma-yon borganligiga bizni ishontirdi. Ayni paytda, she'riyatimizda bir tomondan, mumtoz adabiyotimizning eng yaxshi an'analari yangi davr masalalari bilan bog'langan holda muvaffaqiyat davom ettirganligi, ikkinchiyoqdan, G'arb poeziyasining mukammal namunalaridan samarali foydalanilgani ma'lum bo'ldi.

4. Mazkur davr adabiyotini o'rganish, tadqiq etish, a'maliyotga ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonlariga tadbiq etish ishlarida bosh-qosh bo'ldi. O'zi ham

darslik qo'llanmalar yaratdi va qo'llanmalar yaratilishida hammuallif sifatida ishtirok etdi.

Professor Begali Qosimov ko'p yillar davomida muttasil ravishda jadidchilik harakatini o'rganib keldi. Hatto uning doktorlik dissertatsiyasi ham boshdan-oyoq jadidchilik muammolariga bag'ishlangan edi. Mazkur muammoga bag'ishlangan o'nlab risolalar, maqolalar elon qilgan edi. Ularning hammasida jadidchilik harakati asosan XX asr boshlaridan boshlab Turkistondagi qudratli fikriy uyg'onishga turtki bo'lgani dalillab berilgan. Jumladan, uning "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoiylilik" kitobida ham qariyb qirq yillik ijodiy faoliyati davomida jadidchilikni o'rganish borasidagi ishlarni umumlashtirib berdi. Begali Qosimovning mazkur tadqiqoti bugungi kunda, ayniqsa milliy istiqlol mafkurasini shakllantirayotgan bi paytimizda juda katta ilmiy-amaliy ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari Begali Qosimovning "Salom kelajak" nomli maqolalar to'plami ham mavjud bo'lib, ushbu to'plamda qardosh tatar xalqi bilan o'zbek xalqining tarixiy, madaniy, adabiy aloqalari xususida, o'tmishda kelajak uchun yashagan shoirlar haqida qiziqarli faktlar orqali hikoya qilingan. Olim hayotining so'ngi davrlarida tayyorlagan yana bir darslik "O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi" kitobi edi. Ushbu kitobda avliyolar haqida, Navoiy va bir qator janrlar haqida yana jadidchilikning tarixi haqida ham so'z yuritilgan. Olimning "Maslakdoshlar" nomli kitobi ham mavjud. Ushbu kitob Behbudiy, Ajziy, Fitrat kabi ijodkorlarning hayot yo'li va boshidan o'tkazgan kunlari haqida hikoya qiladi.

5.Davr adabiyotiga oid qator ilmiy tadqiqotlar, asarlar yaratdi.

Ustozning "Siddiqiy Ajziy", "Ismoilbek Gaspirali", "Uyg'ongan millat ma'rifati", "Tanlangan asarlar", "Izlay-izlay topganim", "Maslakdoshlar", kabi kitoblari hamda do'sti Akram Kattabekov bilan birgalikda yozgan "Salom kelajak", "Tarix saboqlari" nomli maqollar to'plami ham mavjud.

Begali Milliy uyg'onish davri adabiyoti deb atalgan alohida yo'nalishga asos soldi. Bu borada xalqaro ko'lamda e'tirof etilgan ilmiy maktab yaratdi. Olimning "Milliy uyg'onish" kitobi tom ma'noda Begali Qosimov ilmiy-ijodiy faoliyatining eng yuksak cho'qqisi sifatida baholanishi kerak. Bu kitob faqat olis o'tmish

hodisoti emas, bugungi kunda ham o'zbek ziyolisini qiynayotgan savollarga javob topishga yordam va yo'llanma beradigan, ma'rifatparvar bobolarimiz tajribalaridan, ularning xato va adashuvlaridan ogohlantiradigan, yutuq va kamchiliklaridan xulosa chiqaradigan dasturilamaldir.

Begali Qosimov kitoblaridan yana biri "Salom kelajak!" deb ataladi. Bu nomda katta ma'no, chiroyli ramz bor. Kitobda, asosan, asrimiz boshlarida, 20-30-yillarda ijod etgan, turli sabablarga ko'ra nomlari ilmiy, adabiy jamoatchilikka yaxshi ma'lum bo'lmagan shoirlar, ma'rifatparvarlar haqida hikoya qilinadi, yangi dalillar, ibratli voqealar qalamga olinadi, tahlil-tadqiq etiladi. Abdulla Avloniy, Mirmuxsin Shermuhammedov, Sidqiy Xondaliqiy, Tavallo va boshqa ijodkorlar, eng avvalo, ziyolilar, ma'rifatparvarlar bo'lishgan, xalqni ongli, o'qimishli qilish, millat bayrog'ini baland ko'tarishga bel bog'lashgan, zahmat chekishgan, istiqlolni, istiqbolni, bugungi, ertangi kunni orzu qilishgan. Bu davr ijodkorlarining millatparvarlik yo'lidagi sayi-harakatlarini millatchilikka yo'yish, teskari talqin etish, o'zlarini qatag'on qilishlar ham bo'lgan.

"Izlay-izlay topganim" olim qalamiga mansub bu kitob jiddiy izlanish, yirik tadqiqot samarasidan qanoat hosil qilish, andak g'urur-iftixor aks etgan bu nomda. Olim shunday deyishga to'la haqli-huquqli edi. Keyinchalik ushbu kitob, uning muallifi haqida hamkasblari "Izlay-izlay topgani", "Igna bilan quduq qazgani" deyishdi, maqola-taqrizlar bitishdi.

Endigina ilm, adabiyot maydoniga kirib kelayotgan yosh tadqiqotchi Begali Qosimovning ilk maqolasi 1964-yili "Sirdaryo haqiqati" gazetasida bosilgan bo'lib "Inqilob va adabiyot" deb atalgan edi. Oradan qirq yil o'tkach yetuk olimning oxirgi maqolasi (2004) Naim Karimovning "Cho'lpon" kitobida yozgan salmoqli, teran taqriz-maqolasi bo'lgan. Ilk maqolasi bosilayotganida ichidan behad quvongan ustoz, kelajakda qanoatlangan yosh tadqiqotchi taniqli adabiyotshunos, munaqqid, filologiya fanlari doktori, professor O'zbekiston Respublikasi fan arbobi bo'lib yetishdi. Uning mo'tabar nashrlarida bosilgan "Jadidchilik", "Abdurauf Fitrat-xalq farzandi", "Tavallo", "Vadud Maxmud", "Ismoilbey va Turkistonda jadidchilik", "Madadkor bo'laylik", "Birinchi jahon urushi va

she'riyat", "Mardikorlik she'riyati", "Porloq insonga qasida", "Kurashlarda boqiydur dunyo" va boshqa asarlari ilmiy-adabiy jamoatchilik tomonidan iliq kutib olingan. Ustoz Beagli Qosimovning bu maqolalari ro'yxatini yana davom ettirish mumkin. Maqolalari soni 300 dan ortiq. Albatta bu son biz uchun aytishga oson, aslida esa ustoz B.Qosimovning yoshida har bir olim ham shuncha maqolani ro'kach qila olmaydi.

Begali Qosimovning ko'pchilik maqolalari jamoatchilik nazariga tushgan, yaxshi ma'noda shov-shuv bo'lgan desak bo'ladi. Maqolalarining ayrimlari Afg'oniston, Turkiya, Germaniya va boshqa mamlakatlarda bosilgan, Moskva, Qozon shaharlarida chop etilgan to'plamlari ham joy olgan edi.

6.Milliy uyg'onish davr adabiyotini davrlashtirib, har bir davrga xos bo'lgan xususiyatlarni ochib bergan.

Begali Qosimov jadid adabiyotini o'rganish davomida jadidshunoslarni bosib o'tgan yo'llarini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'ldi:

- 1) 1900-1925;
- 2) 1925-1938;
- 3) 1938-1956;
- 4) 1956-1985;
- 5) 1985-1991;
- 6) 1991 dan keying davr

1900-1925-yillar "jadidchilik" tushunchasining paydo bo'lishi va o'z davrining eng peshqadam hodisasi sifatida baholangan davridir.

1938-1956-yillarda jadidchilik va uning vakillari avlodlari qalbidan tamom siqib chiqarildi. Masalan, 1956-yilda XX asr boshi adabiyoti 4 ijodkordan tarkib topgan edi: Hamza, Ayniy, Zavqiy, Avaz. Hamza-mutaasiblar tomonidan o'ldirilgani uchun, Ayniy amir Said Olimxonning, Avaz Isfandiyorxonning, Zavqiy Ergash qo'rboshining kaltagini yeganlari uchun. Bu mezon hozir kulguli, albatta. Lekin zamon shunga majbur qilgan.

1985-yildan boshlangan demokratik va oshkoralik jadidchilikni ilmiy asoslarda va rejali o'rganishga imkoniyat tug'dirdi. Bir qator ilmiy anjumanlar bo'lib o'tib, qator darslik va qo'llanmalar yaratildi.

7.Davr adabiyotini o'rganishga yosh tadqiqotchilarga ilmiy maslahatlar berdi. Olimning raxbarligida qator tadqiqotchilar mazkur davr adabiyotining turli muammolarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarni yaratdi. Jumladan: Uzoq Jo'raqulov, Fitrat ilmiy asarlari muammosini o'rgandi.

Olimning yuqorida biz sanab o'tgan asarlarida ham juda ko'b tadqiqotlarga duch kelishimiz mumkin. Jumladan, "Maslakdoshlar" kitobida istiqlol fidoiylari bo'lgan Behbudiy, Ajziy, Fitrat ijodiga oid qilgan tadqiqotlarini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari olimning olimning zamondoshlari, yaqin do'stlari tomidan yaratilgan "So'ngi jadid" qissasi ham aynan shogirdlari tomidan qilingan tadqiqotlar edi.

8.Olimning tadqiqotlari milliy uyg'onish va jadid adabiyoti vakillarining hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar berilganligi bilan bir qatorda ularning asarlari g'oyaviy-badiiy mohiyatini ochib berishga milliy istiqlol mafkurasi bilan hamohang jihatlarini yoritishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Ustoz Begali Qosimovning "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik" nomli tadqiqotida milliy uyg'onish va jadid adabiyoti vakillarining hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarga duch kelamiz. Muallif ushbu mavzu bilan salkam 40 yil shug'ulllanib kelgan. Abdulla Avloniy, Mirmuhsin Shermuhammedov, Saidrasul Aziziy, So'fizoda, Nozimaxonim, Sidqiy Xondaliqiy, Tavallo, Botu, Mirmulla, Cho'lpon, Fitrat, Behbudiy, Kamiy ijodlarini va ularning faoliyati bilan kitobxonlarni tanishtirdi. Lekin davr taqazosi bilan ularning mustaqillik uchun kurash faoliyati chetla o'tilib, ma'rifatchiligiga asosiy e'tibor berilgan edi. Mustaqillik tufayligina bu ijodkorlar faoliyati va merosini atroflicha o'rganish, Vatan va Millat manfaati nuqtayi nazaridan baholash imkoniyati tug'uldi.

Mazkur tadqiqot jadidchilikning shakllanishi, tarixi, manbaalari, ijtimoiy-siyosiy, ma'daniy-adabiy harakatchilik bilan aloqalarini umumlashtirish yo'lidagi tajribalardan biridir.

Bu hodisaning o'lmas g'oyalari, ayniqsa, ulardan uchta hozirgi kunlarimizda ham suv bilan havodek zarur bo'lib turibdi. Bular: jasorat, ma'rifat, fidoyilik.

Begali Qosimov rahbarligida maxsus kafedra tashkil qilindi. Unda ilmiy tadqiqotlar, xulosalar umumlashtirildi, yagona tizimga keltirilib, jadid ma'rifatparvarlari adabiyotimiz tarixida alohida milliy uyg'onish davrini tashkil etishi isbotlandi. Adabiyot va ilmiy jamoatchilik buni qabul qildi. Adabiyotshunoslikda yangi davr kashf qilindi. Adabiyotimiz tarixini davrlashtirishga o'zgarish kiritildi. Eng asosiysi, bu davr adabiyoti bo'yicha oliy o'quv yurtlari uchun alohida o'quv dasturi va qo'llanmasi yaratildi. Shunday qilib, adabiyotimiz tarixini o'rganishda yangi davriy bosqich qaror topdi. Uning asoschisi, tashabbuskori va birinchi ilmiy raxbari Begali Qosimov bo'ldi. Bu uning xalqiga qilgan beminnat va ulkan xizmatidir, olim va o'qituvchi sifatida ilmiy jasoratidir.

II.2.Begali Qosimov jadid adabiyotini to'plovchi va nashrga tayorlovchisi sifatida

Begali Qosimovning o'zida tug'ma zehn, uquv, o'tkir qobiliyat bor edi. O'qishni bitirmasdan uni ustoz G'ulom Karimov o'zining haqiqiy shogirdi sifatida e'tirof etdi va Begalining jadid adabiyotini o'rganishga, o'z rahbarligida ilmiy ish olib borishiga fотиha berdi. U vaqtlarda jadidchilik davri haqida nainki yozish, yoinki jo'yali fikr aytish, hatto baralla gapirish ham mumkin emas edi. Chunki o'sha davr mafkurasi jadidchilikdan cho'chir edi. Sababi jadidchilik yangilik degani bo'lib, jamiyatni yangilash uchun bel bog'lagan o'zbek – turkiy ziyolilar harakati edi.

Shu boisdan ham Turkiston jadidlarining otasi hisoblanmish Mahmudxo'ja Behbudiy va keyingi bir qator shoir-yozuvchilar –Avloniy, Mirmuhsin Shermuhammedov, Tavallo, So'fizoda va boshqa ma'rifatparvar adiblarimiz ijodi u mahallarda o'rganilmagan, ular merosiga qo'l tekkizilmagan edi. Begali

Qosimov mana shu nihoyatda mushkul vazifani o'z zimmasiga oldi. Tariximizning o'ta murakkab va ziddiyatli sahifasini qunt va sabot bilan o'rgandi. Adabiyotimizning biz bugun barilla o'qib-o'rganayotgan katta bir bo'g'inini, yuzdan ortiq ijodkorlar merosini fanimizga, ilmimizga qaytarib berdi. Xalqimiz, yoshlarimiz Begali Qosimovday olim sharofati bilan bu merosdan bahramand bo'lmoqda. Lekin bu ish oson kechgan emas. Buning uchun Begali Qosimov bormagan kutubxona, izlamagan manba qolmadi. U bir qarasangiz Qozonda, bir qarasangiz Ufada, bir qarasangiz Peterburgda yoxud Ovrupo shaharlarida bo'lib, o'sha davr adabiyoti vakillarigategishli materiallarni axtardi, topdi va ommalashtirdi.

Tadqiqotchidan tadqiqotchining farqi bo'ladi, albatta. Sababi, buning uchun qiyinchiliklardan cho'chimaslik va juda sinchkovlik barobarida benihoya teran tafakkur egasi bo'lishi ham zarur. Shu ma'noda, Begali Qosimov nainki o'zi o'rgangan davr adabiyotini, balki umuman jahon adabiyotini, falsafiy tafakkur tarixini keng qamrovli bilgan ulug' bir shaxs edi. U mumtoz adabiyot deysizmi, zamonaviy adabiyotmi, she'riyatmi, adabiy tanqidmi, hamma-hamma sohaga baravar qiziqardi. Ana shu qiziqish natijasi o'laroq milliy adabiyotimizning barcha davri bo'yicha yuksak saviyali tadqiqotlar yaratdi.

Istiqlol, mustaqillik davri hammamiz uchun katta imkoniyatlar, ijodiy ufqlar ochdi, albatta. Bu, ayniqsa, Begalining ilmiy faoliyatida yaqqolroq namoyon bo'ldi. Sababi, istiqlolgacha bo'lgan mafkura Begali Qosimov o'rgangan davr adabiyotiniqabul qilishni istamas edi. Qabul qilganda ham, atrofga olazarak qarab, ishonqiramay munosabatda bo'lardi. Jadidlar va o'sha davrda yashagan ma'rifatparvarlar faoliyati zahirida albatta, ozodlik g'oyalari bor edi. Hurriyat, istiqlool orzusi barq urib turar edi. Ana shuning uchun ham ulardan cho'chishardi.

Shu bois, istiqlool, mustaqillik davri Begali ilmiy ijodining yanada ravnaq topishi, kamolga erishuvi uchun bebaho bir imkoniyat berdi. Bu yillarda Begali tinimsiz samarali ilmiy tadqiqotlar olib bordi, ijod qildi. Keyingi davrlarda bizda, albatta, turli unvonlarga ega bo'lgan yozuvchilar, shoirlar, olimlar ko'p. Biroq jahon miqyosida e'tirof etilishiga ko'ra barmoq bilan sanarli shaxslarni ayta

olishimiz mumkin, xolos. Shuning uchun Begali Qosimovning xorijiy mamlakatlarda juda chuqur bilimli, teran tadqiqotchi, ulkan olim sifatida tan olingani tahsinga sazovor. Begali Qosimov ijodidan, ilmiy ishlaridan chet ellik mutaxassislar ham eng ishonchli manba sifatida foydalanib keldilar va hozir ham shunday.

“Jadidchilik” ning asosida “jadid” so’zi yotadi. “Jadid” ning ma’nosi “yangi” demakdir. Uning shunchaki “yangi” yo bo’lmasa, “yangilik tarafdori emas” degani emas. Balki, “yangi tafakkur”, “yangi inson”, “yangi avlod” singari keng ma’nolarni o’zida mujassam etgan. Ustoz Begali Qosimov jadidchilik haqida shunday degan edi: “Jadidchilikning mohiyatini Millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashishgacha bo’lgan qizg’in va hayajonli jarayon tashkil qildi”¹⁸.

Jadidchilik g’oyalari erta bahorning shiddatli shamollari singari bosib, ketgan o’rta asrchilik turmushini eng pastki qatlamlarigacha ochib tashladi. Millat va Vatanning hayot-mamot masalasi kun tartibiga qo’yilgani haqida bong urdi. Uning bag’ridagi jarohatlarni yoritdi. Turkiston ko’ksidagi maorif, matbuot, teatr nihollariga hayot baxsh etdi. Bu g’oyalarning asosida milliy uyg’onish, milliy mustaqillik uchun kurash yotar edi. Jadidchilikning mohiyatini Millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashishgacha bo’lgan qizg’in va hayajonli jarayon tashkil qildi. Ayni paytda, bu harakat millatni ham tarbiyalab bordi. Uni o’z boshiga yog’ilgan har bir ofatni taqdir deb ta’bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko’tardi. Xususan, jadidlarimiz millatning yashamog’i, taraqqiy topmog’i, uchun birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo’lmog’i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg’otishga alohida e’tibor berdilar.

Jadidchilikni o’rganishda yangi bosqich bo’lgan, professor Begali Qosimov tomonidan 2002-yilda nashrdan chiqarilgan “Milliy uyg’onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik” asari jadidchilik harakatining vujudga kelishi, mohiyati, taraqqiyoti, ta’sir doirasi kabi nazariy masalalarni hamda uning yetakchi namoyondalari faoliyatini tadqiq qilishga qaratilgan edi. Begali Qosimov o’tgan

¹⁸ Qosimov.B.O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. — T.: <<Fan va texnologiya>>, 2008, 73- bet.

asrning 60-yillaridan boshlab jadidchilik harakatining ham nazariy, ham amaliy masalalarini bilan shug'ullanishga astoydil bel bog'lab ishga kirishgan. Asarda Turkiston jadidchilik harakatiga Rossiya musulmonlari, xususan, Tatariston, Qrim, Ozarbayjon, Boshqirdiston, taraqqiyparvarlik harakatining, Ismoilbek Gaspirali, Rizo Faxriddin, Fotix Karimiy, Jalil Mamadqulizoda, Aliakbar Toirzoda (Sobir) va boshqalarning o'lka jadid mutafakkirlariga ta'siri ancha keng yoritilgan.

Jadidlar ijodi bugungi milliy g'oyamizning eng yaqin va eng teran tomirlaridan biridir. Jadidlar hayoti, amaliy va adabiy faoliyati xalqimizga o'zligini anglashda, milliy g'oyani chuqur idrok etib, qalbiga, ongi va shuuriga jo qilishida zavol bilmas manba, hayotbaxsh buloqdir. Bu buloqning ko'zini ochib, obi hayotni xalqiga ulashganlarning birinchisi aynan ustoz Begali Qosimovdir.

Begali Qosimov o'zbek adabiyotini tadqiq etishga, xalqimizning istiqlol uchun kurashida yorqin sahifani tashkil etgan jadid adabiyotini o'rganishga butun hayotini, sog'lig'ini baxsh etdi. O'zi ham jadidlarga munosib fidoyilik bilan yashadi, ijod qildi. Ona xalqi istiqboli uchun zaxmat chekish, mehnat qilish uning qismatiga mazmuniga aylangan edi. Zotan, professor Ozod Sharafiddinov to'g'ri ta'kidlaganidek, Begali Qosimov millat deb jon fido qilgan jadidlarning so'ngisi edi.

Ustoz Begali Qosimovning "Izlay-izlay topganim" nomli kitobining yaratilishi bugungi kunda bevosita jadidlar hayoti bilan tanishishimizga imkon berdi. Begali Qosimov XX asr boshlaridagi jadidchilik harakati, uning ko'p tarmoqli yo'nalishlari, ommaviy axborot vositalari, xalqaro aloqalari, namoyondalari ijodini o'rganishdagi mustahkam ustunlaridan biriga aylandi.

Begali Qosimov juda ko'plab jadid ma'rifatparvarlari asarlarini to'plab nashrga tayyorladi. Olimning sa'y-harakatlari bilan 1973-yili "G'afur G'ulom" nomidagi adabiyot va san'at nashriyotidan nashrga tayorlovchi Begali Qosimov tomonidan Siddiqiy Ajziyning "Tanlangan asarlar" nashrdan chiqdi. Kitobda olimning "Shoir haqida bir-ikki so'z" sarlavhali so'zboshisi e'lon qilingan. Shuningdek, asarda S.Ajziyning "G'azallar", "Tarkibbandlar", "Satira va yumor", "Tojikcha she'rlardan", Mirioti ibrat(dostondan parchalar)i to'plangan. Shu kichik

so'zboshida Begali Qosimov S.Ajziy faoliyatining barcha qirralarini qamrab olishga harakat qilgan.

Birinchidan, uning hayot yo'liga oid ma'lumotlar beradi. Jumladan, uning to'quvchi oilasida tug'ulgan, bobosi Alixo'ja eshigida kechirgani, ayniqsa uning usta Abdulqayum eshigida o'tgan kunlari juda alamli va iztirobli bo'lganligini aytib o'tadi.

Ikkinchidan, Ajziyning Sharq klassik adabiyotiga qiziqqanligi va ta'lim-tarbiya ko'rgani bilan bog'liq ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan: u tuganmas bir g'ayrat bilan sharq klassik adabiyotini mutolaa qilgan, arab, fors, ozarbayjon tillarini barcha nazokat va fasoxat bilan egallashga harakat qilgan. Ustozlariga ergashib g'azallar yozib, azaliy va adabiy muhabbatning zavq-shavqi-yu, iztirob va istig'nolarini o'z sozi, o'z ovozi bilan kuylashga harakat qilgan.

Uchinchidan, olim Ajziyning zamondoshlari bergan ma'lumotlarni o'rganadi. "Darhaqiqat, zamondoshlari ta'kilaganidek, g'oyat tirishqoq, katta zehn va iqtidoga ega bo'lgan kishi edi. Bundan tashqari ustoz Begali Qosimovning bergan ma'lumotlariga qaraganda "Inqilob" jurnalining 1924-yil 12-sonida e'lon qilingan bir maqolada zamondoshlaridan biri u haqida shunday yozgan ekan: "O'zining asosiy kasbi e'tibori ila hozir ham Samarqand tegrasidagi Xalvoi qishlog'ida dehqonchilik bilan mashg'uldur. Siddiqiy yaxshi bir texnikdur. Soat va turli moshinalarni tuzatmoq ishiga moxirdur. Yaxshi to'quvchi va tikuvchidur. Yaxshi ovchidur, musiqiy bilan ham, shug'ullangandur. Oz tilidan boshqa arab, fors, rus tillarini biladur". Bundan ko'rishimiz mumkinki Siddiqiy Ajziy har sohada epchil, mohir bo'lgan ekan".¹⁹, deb yozadi.

To'rtinchidan, uning ijodiy faoliyatiga to'xtaladi. Jumladan, u eng avvalo shoir bo'lganligini, shoir bo'lganda ham juda katta istedodga ega bo'lgan shoir ekanligini aytadi. Ustoz Begali Qosimov S.Ajziyning adabiyotga qachon, qaysi she'ri bilan kirganligi haqida malumotlar deyarli yo'qligini takidlaydi. Shu narsa ma'lumki, u dastavval ishqiy mavzuda she'rlay yozgan. O'sha payt tazkiralarda

¹⁹Сиддикий.А.Танланган асарлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. 4 – Б.

“nozik tab” shoir sifatida tilga olinadi va ishqiy she’rlaridan ba’zi baytlar keltiriladi.

Beshinchidan, shoir asarlarini sanab ko’rsatadi va ularning xarakterli xususiyatlarini qayd etadi. Jumladan, “Mirioti ibrat” (Ibrat oynasi), “Anjumani arvox” (Ruxlar yig’ini) nomli dostonlari, “Aynul adab” (Odob ko’zi), “Ganjinai hikmat” (Hikmat xazinasi) kabi she’riy to’plamlari mavjud. Uning yuqoridagi ikki dostoni dastavval fors-tojik tilida e’lon qilingan. Shoir “Mirioti ibrat” ning o’zbek tilidagi nusxasini 1914-yilda Samarqandda nashr ettirgan.

Oltinchidan, shoirning o’ziga xos uslubiga oid qarashlarini ban etadi. Masalan, “Shoir she’rlari chuqur faylasufona va asosan ishqiy mavzuda. Jumladan ushbu kitobda uning “Tojikcha she’rlaridan” namunalar, “Mashrab haqida”, “Ulamolar”, “Ekin yerlarining dardu xasrati”, “Boshimdan o’tganlar”, “Tilak”, “Tabrik” kabi bir qator she’rlari shular jumlasidandur.²⁰.

Xullas, adabiyot ahli olimning so’zboshi maqolasi va ijodidan to’plagan materiallari asosida XX asrning 70-yillaridayoq S.Ajziy ijodiga oid har tomonlama keng ma’lumotlarga ega bo’ladi.

Olim ma’rifatparvar ijodkorlar asarlarini nashrga tayyorlash jarayonida ularning asarlarida aks etgan ma’lumotlarning izohlari, murakkab va davr ruhi aks etgan so’zlar lug’atini ham ilova qildi. Uning sa’yi harakatlari va tashabbusi bilan “Istiqlol qahramonlari” rukni ostida chiqqan bir necha kitoblar, ya’ni ma’rifatparvar ijodkorlarning “Tanlangan asarlar”i nashrdan chiqdi. Jumladan, “Mahmudxo’ja Behbudiy” (Toshkent, “Ma’naviyat” nashriyoti, 1999 yil), “Sidqiy Xondaliqiy” (Toshkent, “Ma’naviyat” nashriyoti, 1998 yil), “Abdulla Avloniy” (Ikki jildlik. Toshkent, “Ma’naviyat” nashriyoti, 1998 yil) va hokazo. Shuningdek, olim bir necha ma’rifatparvar ijodkorlarning “Tanlangan asarlar”i nashrida tahrir hay’ati a’zosi sifatida ishtirok etdi. Jumladan, “Abdulhamid Majidiy” (Toshkent, “Ma’naviyat” nashriyoti, 2000 yil), “Said Ahroriy” (Toshkent, “Ma’naviyat”

²⁰ Сиддикий.А.Танланган асарлар. . – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. – Б.4

nashriyoti, 2001 yil) va hokazo. Qolaversa, olimni bir qancha ma'rifatparvar ijodkorlar asarlariga so'zboshi muallifi sifatida tilga olish mumkin. Jumladan, “Alloma adib”²¹, “Oq tonglarni orzulagan shoir”²², “Karvonboshi”²³, “Din va dunyoni ushlagan shoir”²⁴ va hokazo.

Ko'rinyaptiki, olimning fidokorona mehnati natijasida adabiyot olamida qanchadan qancha ijodkorlarning nomlari tanitildi. Ular asarlaridan xalq bahramand bo'la boshladi. Albatta, bunday saobli va sharaflil vazifani bajarish uchun yuksak salohiyat va iste'doddan tashqari fidoyilik, mehnatkashlik, mashaqqatlardan qochmaslik, shu bilan bir qatorda, eng asosiysi, vatanparvarlik, yurtga chin muhabbat tuyg'usi ham bo'lishi kerak edi. B.Qosimov ana shunday millatparvar, yurtsevar inson bo'lganligini uning bizga qoldirgan ana shunday boy merosi ko'rsatib turibdi.

II.3. Olimning “Maslakdoshlar” kitobi ilmiy ahamiyati

Ustoz Begali Qosimovning “Maslakdoshlar” kitobi 1994-yili “Sharq” nashriyotidan Toshkentda bosmadan chiqdi. Ushbu kitobning “Maslakdoshlar” deb nomlanishini ham bejiz bo'lmagan, albatta. Chunki ushbu kitob istiqlool fidoyilari bo'lmish Mahmudxo'ja Behbudiy, Siddiqiy Ajziy, Abdurauf Fitrat haqidadir. Ular istiqloolni maslak qilgan va shu yo'lda xizmat qilagan fidoyilar edilar. Kitob uch qismdan ya'ni “Adibi avval”, “Shoir xotirasini izlab”, “Fitrat” kabi bo'limlardan tashkil topgan.

Kirobning “Adibi avval” deb nomlangan birinchi qismida Mahmudxo'ja Behbudiyning hayoti, ijodi, jadidchilikda qilgan xizmatlari haqida so'z boradi.

Mahmudxo'ja Behbudiyasrimizning birinchi choragidagi Turkistonning eng mashhur kishilaridan, aniqroq aytganda ma'rifatparvarlaridan bo'lgan. Ushbu asar

²¹Qosimov B. Alloma adib. / Fitrat A. Chin sevis. – T.: Faqur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. – B. 3-22.

²²Qosimov B. Oq tonglarni orzulagan shoir. / Avloniy A. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 1998. – B.5-78.

²³Qosimov B. Karvonboishi. / Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 1999. – B.38.

²⁴Qosimov B. Din va dunyoni ushlagan shoir. / Xondaliqiy S. Tanlangan asarlar. – T.: Ma'naviyat, 1998. – B.5-31.

Behbudiyning qatl etilishi bilan boshlanadi. Jumladan, Ustoz Begali Qosimov buni shunday eslaydi: “Uning nomi Turkiston general gubernatorligi u yoqda tursin, oq podshoning o’ziga ham ayon bo’lgan. Buxoro amiri Said Olimxon uni o’zining shaxsiy dushmani deb hisoblardi. 1919-yilning bahorida ayg’oqchilar uni Shahrizabzda qo’lga oldilar. So’ngu yashirincha Qarshiga keltirildi. Qarshi begi Tog’aybekning buyrug’i bilan pinxona qatl etildi”²⁵.

Lekin keyinchalik ustoz Begali Qosimovning ayrim manbaalardan topgan ma’lumotlariga qaraganda bu mutlaqo xato, uning o’ldirilishi aslida bunday bo’lmadan degan fikrga kelishgan. Uning amir odamlari emas, chekistlar tomonidan yo’q qilinganligi haqida taxminlar borligini aytib o’tadi. Umuman olganda, istiqlolni muqaddas tutgan, o’lkaning milliy, diniy, zaminidagi taraqqiyoti uchun kurashgan va xalq orasida g’oyat katta mavqega ega bo’lgan Behbudiyo’zo’ravonlik yurituvchi Rossiya mustamlakachilari davomchisi – Sovet hukumati uchun juda xavfli kishi bo’lgan, desak mubolag’a bo’lmaydi. Chunki, ular aynan shunday kishilardan qattiq qo’rqar edi. Ana shu jihat Behbudiyning o’ldirilishiga asos bo’lgan. Ustoz Begali Qosimovning aytishicha: “Uning qatli haqidagi mash’um xabar keyinroq ma’lum bo’ldi. Ziyolilar, butun xalq bu og’ir musibatdan qattiq iztirobga tushdi. 1920-yilning aprelida butun Samarqand motam tutdi”²⁶. Bizga tarixdan ma’lumki, hamma zamonlarda ham, hamma vaqt ham har kim uchun ham xalq motam tutib, qayg’urib ko’z yosh to’kmaydi. Behbudiyo’mana shunday xalqning yuragiga yo’l topib bilgan ma’rifatparvarlardan, xalqning qalbiga ilm ziyosini olib kirgan jonkuyar kishilardan bo’lgan. Mana shuning uchun ham xalq ana shunday yo’lboshchisidan ayrilgani uchun ko’z yosh to’kdi.

Bundan tashqari asarda Mahmudxo’ja Behbudiyning hayotiga ham alohida to’xtalib o’tilgan. Behbudiyo’1875-yili 19-yanvarda Samarqandda ruhoniyo’oilasida tug’ulganligi, eski maktab-madrasada o’qiganligi aytilgan. Qozixonalarda mirzalik, muftilik qilgani qayd etilgan. Toshkentdagi “Turkiston viloyatining gazetisi”, Orenburgdagi “Vaqt” kabilarda bosilgan bir qator maqolalariga “Muftiyo’

²⁵ КосимовБ. Маслакдошлар / Адиби аввал. –Т.: «Шарқ»,1994, 3-б.

²⁶ КосимовБ. Маслакдошлар / Адиби аввал. –Т.: «Шарқ»,1994, 4-б

Mahmudxo'ja Behbudiy" deb imzo chekkan ekan. Arabiston, Misr, Turkiya kabi Sharq mamlakatlarida, Qozon, Ufaga borgan. Jadidchilik harakatining asoschisi I.Gaspirinskiy bilan suhbatlar qilgan.Xullas, 1905-yillar arafasida zamonasining ko'zga ko'ringan ziyolisi bo'lib tanilgan.Ustoz Begali Qosimov Behbudiyning Movarounnahr taraqqiychiligining ramzi sifatida ko'rsatib, ma'rifatchilikdagi xizmatini Turkiyadagi Ahmad Midxat ishlari bilan teng qo'yadi.Chindan, Behbudiyning Turkiston maktab-maorifchiligidagi xizmati g'oyat katta. Uo'lkadagi "usuli jadid" maktabining eng birinchi nazariyotchi va amaliyotchilaridan edi. Jadidchilik harakatining esa tan olingan karvonboshi bo'lganligini aytilgan. Begali Qosimov Behbudiy Gaspirinskiyning o'ziga ma'naviy ustoz, yo'l boshchi deb bilganligini, uning qarashlariga tayanib, uning izidan yurganligini keltirib o'tadi. Jumladan, "Behbudiy Gaspirinskiyning har jihatdan o'ziga ustoz bildi. Uning aql-u g'ayratini, millat yo'lidagi fidoyiligini juda yuksak baholadi. Uning vafoti munosabati bilan yozgan maqolasida "Rusiya musulmonlari ichida bunday bir zot kelgan yo'qdur"²⁷, -deb takidlagandi deydi Begali Qosimov.

Biz ushbu "Maslakdoshlar" kitobining Behbudiyga atalgan qismini o'qish davomida shu kungacha hech qaysi adabiyotga uchratmagan yangi ma'lumotlarga ko'zimiz tushdi va bevosita Behbudiy haqidagi fikrlarimizni yanada oydinlashtirdi. Ushbu kitobda aytilishicha, Behbudiy adabiy tanqidga ham katta e'tibor bergan ekan. U Navoiydan keyingi bir necha asrlk sukunatdan so'ng bu sohaning xususiyatlarini tayin etib, adabiyotda tenghuquqlilik masalasini ham o'rta qo'yib ketgan ekan. Uning ushbu mavzuga bag'ishlangan "Tanqid saralamoqdur" nomli maqolasi ham mavligini ta'kidlagan Begali Qosimov mazkur maqolaning ilmiy qimmatini yuqori baholaydi.

Olimning ushbu asari tufayli istiqlool fidoyilarining hayoti, ijodi va faoliyatiga doir yangidan yangi qimmatli yangiliklarni bilib olish mumkin.

²⁷Қосимов.Б. Маслакдошлар / Адиби аввал.—Т.: «Шарк»,1994. — В. 9.

Asarning ikkinchi qismi bo'lgan "Shoir xotirasini izlab" maqolasi ikkinchi bir ma'rifatparvar olim Siddiqiy Ajziy haqida.

Begali Qosimov chin ma'nodagi millatparvar inson ekanligini uning qoldirgan adabiy merosi ko'rsatib turadi. Uning "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik" kitobida ham, dissertatsiyava tadqiqotlarida ham biz shu kungacha tanigan ammo, hayoti, ijodi, faoliyati haqida chuqur ma'lumotga ega bo'lmaganistiqlol fidoyilari haqida so'z yuritiladi, ular haqidagi juda ko'plab masalalar oydinlashtiriladi. Ustozning ana shunday ishlaridan yana biri bo'lgan "Siddiqiy Ajziy" tadqiqoti uning Siddiqiy Ajziy ijodi bilan qiziqib, izlanishlar olib borishiga harakat qilib yurgan uning talabalik kezlaridayoq diplom ishisining mavzusi sifatida tanlangan ekan. Olim bu paytni shunday xotirlaydi: "Menga "Siddiqning adabiy merosi" mavzusi tegdi. Bilmayman. Eshitmaganman.Ustoz G'ulom Karimovga murojaat qildim. Ustoz: -Samarqandli shoir, ma'rifatchi. Bizda o'rganilmagan. O'rgansangiz, qiziq materiallar chiqishi mumkin. Lekin, til uslubi juda og'ir. Darvoqe, eski imlo bilasizmi? Forschaga qandaysiz?"²⁸,—degan edilar. Shundan keyin Begali Qosimov S.Ajziy haqida ma'lumot to'plashga, uning aslida kim bo'lganligini aniqlashga kirishadi. Demakki, olimning milliy uyg'onish davri adabiyotiga qiziqishi uning talabalik davrlaridayoq ustozining maslahat va ko'magi bilan boshlangan ekan.

Begalining yaqin do'stlaridan biri filologiya fanlari doktori Ulug'bek Dolimov ustozning bu paytdagi mehnatini shunday eslaydi: "Begali Qosimov diplom ishi sifatida Siddiqiy-Ajziyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan mavzuni tanladi. Jadid shoirlari orasida Ajziy uslubining nihoyatda og'irligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Sadriddin Ayniy ta'biri bilan aytganda, shoirning bir baytini sharxlash uchun bir necha varaqni qoralash kerak. Begali Qosimov Siddiqiy-Ajziy faoliyatini juda qiziqish bilan chuqur o'rgandi: diplom ishini muvaffaqiyatli himoya qildi, parokanda holdagi asarlarni to'plab, tanlangan

²⁸ Косимов.Б. Маслакдошлар / Шоир хотирасини излаб. – Т.: «Шарк», 1994. – В. 40.

asarlarini nashrdan chiqardi, turkum maqolalar va shoir ijodini tadqiq qiluvchi kitob ham yaratdi”²⁹.

Begali Qosimov izlanishlari davomida avvaliga dushanbelik R.Aslonovning “Siddiqiyning dunyoqarashi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini topadi. O’zimizda ham Ajziy haqida ayrim maqolalar paydo bo’la boshlanganligini aniqlaydi. Shunda ham Ajziy haqida to’liq ma’lumotlar topolmay, oxiri shoir umrining katta qismi o’tgan Samarqand tegrasidagi Xalvoyi qishlog’iga borishga ahd qiladi. Mana shu safaridan so’ggina shoir haqida ma’lumotlar topishga muyassar bo’ladi.

B.Qosimovning qayd etishicha, Saidahmad Siddiqiy 1864-yilda to’quvchi oilasida tug’iladi. Yosh Saidahmad boshiga tirikchilik tashvishlari juda erta tushadi. So’ngra bobosi Alixo’ja eshigida kun kechirdi. 10 yoshlaridan bir burda non toppish ilinjidagi darbadarlik hayoti boshlandi. Ayniqsa uning usta Abdulqayum eshigida o’tgan kunlari juda alamli va iztirobli bo’ladi.

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Saydi Umirov ustozning bu mehnatini shunday xotirlaydi: “ToshDU filologiya fakultetining 5-kursida taniqli adabiyotshunos G’ulom Karimov unga “Siddiqiy-Ajziyning adabiy merosi” haqida diplom ishi mavzusi taklif etadi. Ish kutilgandan ham muvaffaqiyatli chiqadi. Talabchan, bilimdon olim yosh shogirdidan qanoat hosil qiladi, ishonchi ortadi. Aspiranturaga tavsiya etadi”³⁰.

O’sha yili, ya’ni Begali Qosimov Ajziy haqidagi ma’lumotlarini to’liq to’plagan yili 1989-yili uning tashabbusi bilan Ajziy tug’ilib o’sgan qishloqdagi maktablardan birida uning nomi beriladi va aynan shu yili uning tavalludining 125 yilligi nishonlanadi.

Xullas, B.Qosimov Ajziy ijodining sinchkov tadqiqotchisi sifatida adabiyot olamida alohida o’rin qoldirdi. To’g’ri, shoir ijodi hali ko’plab tadqiqotchilar tomonidan o’rganilishi, tahlil va tadqiq etilishi mumkin. Ammo dastlabki ma’lumotlarni yig’ish, ilm-fanga ma’lum qilish, targ’ib va tashviq etish, nomini

²⁹ Долимов У. Миллий уйғониш / Сўнги жаҳид қиссаси. – Т.: “Turon-Iqbol”, 2012, 185-б.

³⁰ Умиров С. Излай-излай топгани / Сўнги жаҳид қиссаси. – Т.: “Turon-Iqbol”, 2012, 154-б.

oqlashga va abadiylashtirishga sa'y-harakat qilish bu fidoyi olimning mehnati, fidoyiligi, mashaqqatlari natijasidir.

“Maslakdoshlar” kitobining uchinchi qismi istiqlol fidoyilaridan yana biri Abdurauf Fitrat haqidadir. Ustoz Begali Qosimovning to'plagan ma'lumotlariga qaraganda, Fitrat 1886-yilda Buxoro shahrida savdogar Abdurahimboy oilasida tug'ilgan. Abdurahimboy o'qimishli, dunyoning past-balandidan xabardor kishilaridan bo'lgan. Savdo ishlari bilan Turkiya, Eron, Qashqarga tez-tez borib turgan. Onasining oti Bibijon bo'lib, taxminan 1866-yilda tug'ilgan. O'g'li Abdurauf xibsga olingan 1937-yilda u hayot bo'lgan. Oilada Abduraufdan tashqari yana ikki farzand-ukasi Abdurahmon va singlisi Mahbuba bor edi. Abdurauf o'sha davr eski maktablaridan birida, so'ng mashhur “Mirarab” madrasasida o'qigan. B.Qosimov uning Istanbuldagi dorilfununda ham o'qiganligini, hatto Istanbul hamshaharlari bilan birgalikda “Buxoro ta'mini (umumiy) maorif jamiyati”ni tuzganligi haqidagi ma'lumotlarni aniqlaydi. Bu jamiyatning vazifasi buxoroliklarning o'zaro moddiy-ma'naviy uyushtirish bo'lgan. Bundan tashqari A.Fitratning “Mijmar” (xushbo'y ud yoqiladigan cho'g'don) taxallusi bilan she'rlar yozganini xabar qiladi. 1909-1913-yillarda Istanbulda Fitratning bir qator asarlari forsiy tilda bosilib chiqadi. Begali Qosimovning fikricha, Fitrat adibgina emas, Buxoro inqilobining g'oyaviy-tashkiliy rahbarlaridan, so'ngroq esa Buxoro Xalq Jumxuriyatining muassislaridan biri, inqilobchi, siyosatchi, arbob sifatida ham shuhrat topgan edi.

Olim Fitratning Turkiyadan o'qishni bitirib kelgan paytlarini shunday ta'kidlaydi: “Fitrat o'qishni tugatib qaytganda (1914) uning nomi Buxorodagina emas, chet mamlakatlarga ham yoyilgan edi. Cho'lpon 1913-1914-yillarda bir sabab bilan “mudarris” bo'lish o'rniga “o'zbek milliy o'quvchisi” bo'lishga qaror berib, otasidan ham, muallimidan ham “qochib Toshkentga kelgan” ini hikoya qilarkan, “u vaqtlarda biz hamma o'zbek yosh yozuvchilari Fitrat ta'sirida edik”,

deydi”³¹. Biz bundan Fitratning yozuvchilar orasidagi mavqeyining ham qay darajada ekanligini bilib olsak bo’ladi.

Biz bu kitobni o’qish jarayonida nafaqat istiqlool fidoyilari bo’lgan Behbudiy, Ajziy, Fitratlarning hayoti va ijodi bilan tanish bo’lar ekanmiz, balki o’sha davrdagi tuzum, umumiy ahvol, xalqning qay darajada ezilganli, ilm olish yo’lida qanchalik intilganligi ammo bunga imkoniyat, sharoit bo’lmaganligiga ham guvoh bo’lamiz. Ustoz Begali Qosimov bizga mana shunday qimmatli manba, qo’llanma qoldirib ketdi. Uning yozgan har bir satridan har bir inson o’zi uchun olam-olam ma’no, ilm, tarbiya olishi mumkin.

Abdurauf Fitrat ijodiy yo’li, ilmiy-badiiy va publitsistik merosi ko’plab mutaxassislar tomonidan o’rganilgan. Bular orasida adabiyotshunos Begali Qosimovning alohida o’rni bor. Olimning samarali mehnati va ilmiy tadqiqotlari bunday deyishimizga asos bo’ladi. B.Qosimovning Fitrat ijodiga doir qarashlari va shu yo’nalishdagi faoliyati uning jadidchilik va jadid adabiyotini o’rganish borasidagi ishlari sirasida alohida o’rinni egallaydi.

Abdurauf Fitrat asarlari asosida Naim Karimov, Erik Karimov, Sherali Turdiev kabilar tomonidan to’plab nashrga tayyorlangan “Chin sevish” sarlavhali to’plamga Begali Qosimovning “Alloma adib” nomli maqolasi so’zboshi sifatida kiritilgan. Mazkur maqola qisqartirish va ayrim tahrirlar asosida olimning “Milliy uyg’onish, jasorat, ma’rifat, fidoyilik” nomli kitobidan ham o’rin olgan. Olimning “Maslakdoshlar: Behbudiy, Ajziy, Fitrat” sarlavhali kitobida esa Abdurauf Fitratning hayot yo’li, faoliyati va ijodiy merosiga bag’ishlanganma’lumotlar ayniqsa xarakterli.

Mazkur to’plamda esa olim Fitrat haqidagi qarashlarini yanada ko’proq ma’lumotlar bilan to’ldirgan.

Tadqiqotchining mulohazalarga boy qarashlari, aniq faktlarga tayanib keltirgan ma’lumotlari hamda ijodkor asarlariga oid tahliliy mushohadalari uning

³¹ Косимов Б. Маслакдошлар / Фитрат. – Т.: «Шарқ», 1994, 40-б.

ma'rifatparvar ijodkor Fitrat shaxsiga va faoliyatiga bo'lgan diqqat-e'tibori va qiziqishidan dalolat berib turadi.

“Fitrat” tadqiqotida olimning biografik, tahliliy-analitik, qiyosiy-tarixiy va sotsiologik tadqiq usullaridan unumli foydalanganligi kuzatiladi. Ishda ma'rifatparvar adibning hayoti va ijodiga oid muhim ma'lumotlar, asarlarining yetakchi mazmun-mohiyati hamda ma'naviy merosining o'z davri va bugungi kunga qadar jahonshumul ahamiyati masalalari asoslab berilgan.

Qarashlarini dastlab ijodkor taxallusining lug'aviy ma'nosini izohlashdan boshlagan muallif uning vafotiga qadar kechgan hayotiga oid eng muhim chizgilarga diqqat qaratishga harakat qiladi. Fikrlarini asoslashda Fitrat yashagan davrda yaratilgan manbalar, keyingi davr olimlarining qarashlari, shuningdek, xorijiy adabiyotlarga o'rni-o'rni bilan murojaat etadi.

Adabiyotshunos Fitratning kuchli iroda egasi va vatanparvar shaxs ekanligini ta'kidlaydi. Unga nisbatan qilingan nohaqliklar arxiv materiallariga tayanilgan holda yoritib beriladi.

Maqolada Abdurauf Fitrat hayot yo'li xronologik izchillikda yoritib boriladi. Uning o'qigan va ishlagan joylari, hammaslak do'stlari va olib borgan islohotchilik faoliyati, qolaversa, asarlarining yaratilish tarixi hamda hayotning so'nggi davrlariga qadar boshidan kechgan voqelarni olim o'zi guvohi bo'lgandek aniqlik va kuchli hayajon bilan yoritib beradi. “1937 yil aprelning yigirma uchidan yigirma to'rtiga o'tar kechasi Toshkentning Guliston mahallasidagi 116-uyning (hozirgi “Xalqlar do'stligi” maydoni) darvozasi bemahal taqilladiyu bunday yo'qlovning bexosiyatligini uy egasi yaxshi bilardi. Lekin taqdirdan qochib qutulib bo'lmaydi”³², deb yozadi olim Fitratning taqdiridagi qora kunlar to'g'risida.

Mazkur maqolada Fitrat asarlarining dastlabki va muxtasar talqinlari aks etganligi ham diqqatni tortadi. Bunda ijodkor adabiy merosi xazinasidan o'rin olgan deyarli barcha asarlar nazardan o'tkaziladi. Olim ijodkor asarlarining janriy xususiyatlarini belgilashga urinadi.

³²Қосимов Б. Фитрат. / Қосимов Б. Маслакдошлар: Беҳбудий, Ажзий, Фитрат. – Т.: Шарқ, 1994. – Б. 144.

“Munozara”ni “dramatik publitsistikaga moyil”³³ligini ta’kidlasa, “Sayyohi hindi”ni “yo’l ocherkini eslatuvchi”³⁴asar deya baholaydi. “Abulfazxon”ni “adabiyotimizda tarixiy mavzudagi birinchi drama”³⁵ deb yozsa, “Shaytonning tangriga isyoni” asarini “kichik dramatik doston” ko’rinishida ekanligini bildirib o’tadi.

Begali Qosimov Fitrat haqidagi tadqiqotni yaratish uchun sinchkovlik va sabot bilan izlanganligini anglash qiyin emas. Chunki maqolada muhim faktik ma’lumotlar, aniq hujjatlar, tarixiy asarlarga murojaat qilingan holda qarashlar dalillab borilgan.

Shuningdek, Fitrat asarlarining ramziy mohiyati, ijodkor asarlarining yetakchi g’oyalari hamda badiiy qimmatlari ham olimning nazaridan chetda qolmaydi. Ayniqsa, “Mirrix yulduziga”, “Sharq” she’rlari, “Chin sevish”, “Hind ixtilolchilari”, “Abulfayzxon” dramalari, “Shaytonning tangriga isyoni” dramatik dostonida Fitrat estetik idealining namoyon bo’lishi masalasini atroflicha tahlil etgan olim ulardagi erk istiqloq g’oyalarining yashirin, ramziy ma’nolarda ifoda etilganligini asoslab berishga intiladi. Jumladan, “Shaytonning tangriga isyoni” asarini tahlil qilar ekan, B.Qosimov shunday xulosalarini bayon etganligini kuzatamiz: “Asarda bosh mavzu – tarix va taqdir. Salohiyatli, shijoatli, lekin birligi bo’lmagani tufayli ichdan bir-birini yeb bitirgan xalqning yo’lsiz, boshsiz qolishi, jaholatning shiddatga minishi, el-yurtning istilochilar oyog’i ostida toptalishi, nihoyat yana bir yangi e’tiqod – dinsizlik e’tiqodining kirib kelishi, tenglik niqobi ostida muayyan guruhlar tekinxo’rligining qonunlashtirilishi – hammasi tarix, taqdir”³⁶.

Abdurauf Fitratning 1996 yilda chop etilgan “Chin sevish” to’plami (Sodir Erkinov bilan birga), shuningdek, “Tanlangan asarlar” ko’p jildlik kitoblarining 2003 yilda e’lon qilingan 3-jildi va 2006 yilda yuzaga kelgan 6-jildlarida Begali

³³O’sha asar, 75-b.

³⁴O’sha asar, 76-b.

³⁵O’sha asar, 124-b.

³⁶O’sha asar, 130-b.

Qosimov nomining mas'ul muharrir sifatida ko'rsatilishi uning ijodkor asarlaridan kitobxonlarni bahramand etishda ham muayyan hissasi borligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitrat ijodini o'rganish va talqin etishda jadid adabiyotining xassos bilimdoni Begali Qosimovning alohida o'rni bor. Olimning Fitrat faoliyatiga oid yirik hajmli maqolasi ma'rifatparvar ijodkorning ziyoli shaxs va erkparvar ijodkor sifatidagi olamini to'laqonli tasavvur qilishga yordam beradi.

Filologiya fanlari doktori, professor Begali Qosimovning ilmdagi xizmatlari Prezidentimiz va mamlakatimiz hukumati tomonidan yuksak darajada e'tirof etildi. Olimga O'zbekiston Respublikasi fan arbobi faxriy unvoni berildi. Mahmudxo'ja Behbudiyning jadidchilik harakatining karvonboshisi atagan professor Begali Qosimovni bugun, xaqli ravishda, jadidshunosligimiz karvonboshisi edi, deya olamiz. Zero, xuddi jadidlar kabi u ham butun faoliyatini, jon-u tanini vatan va millat saodati yo'liga bag'ishladi. Bir olim sifatida bu muqaddas ishga munosib hissa qo'sha oldi.

Xullas, vatanim, xalqim deb ijod qilgan har bir ziyoli, har bir shoir, yozuvchi professor Begali Qosimov uchun mo'tabar va aziz bo'lgan. Ularning har misra she'ri, har bir hikmati, ma'noli gapi, boringki hayot tarzi, kurashi bizga saboq va ibrat bo'ldi. Olim asr boshidagi adabiyotni ana shunday deb tushungan va tushuntirgan edi. Darhaqiqat, hozirgi kunlarimizda dolzarb bo'lgan ko'p masalalar, g'oya va qarashlar "inqilobiy yillar" dagi g'oya va qarashlarga uyg'un. Buni Begali Qosimovning fikr-o'yi, qarashlari ham isbotlab berdi

II.4. Adabiy aloqalar tarixini o'rganish yo'lida.

Tinib-tinchimas olim Begali Qosimov adabiy aloqalar tarixini o'rganishda ham jonbozlik ko'rsatib bir qator yutuqlarga erishdi. Jumladan, uning "O'zbek adabiyoti va adabiy aloqalar tarixi" kitobi fikrimizning isbotidir. Ushbu kitob "Fan va texnologiya" nashriyotidan, 2008-yilda nashrdan chiqqan. Ustoz bu kitobni "O'zbek mumtoz adabiyotining ayrim nazariy va amaliy masalalari", "Jadidchilik, masalaning tarixiga bir nazar", "Adabiy hamkorlik sahifalari do'stlik iplari" kabi

uchta katta qismdan iborat qilib yaratdi. Bundan tashqari ushbu kitobda olimning tarjimalari ham mavjud.

Mazkur kitob olim foliyatining serqirraligini yaqqol ko'rsatib turadigan manbadir. Unda keltirilgan ma'lumotlar B.Qosimovning nafaqat jadid adabiyoti tadqiqotchisi, balki mumtoz adabiyotning ham zukko bilimdoni ekanligini ko'rsatadi.

Kitobning “O`zbek mumtoz adabiyotining ayrim nazariy va amaliy masalalari” bo'limida avliyolar sarvari bo'lmish Ahmad Yassaviy haqida so'z yuritadi. Hazrat Navoiy Yassaviyni “Turkiston mulkining shayxul mashoyixidir”, - degan edi. Ustoz Begali Qosimov Yassaviy haqida so'z yuritarkan uning qachon va qayerda tug'ulganligi, qayerlarda yashaganligi, ijodining qachon gullab yashnaganli, qolaversa uning “Devoni Hikmat” kitobi haqida so'z yuritadi. Uning otasi Ibrohim bo'lganligini, o'zi Sayramda tug'ulganligi, hozirda Yassaviya maqbarasi Turkistonda ekanligini dalillar orqali keltirib o'tadi. Yassaviy mutasavvuf shoir. U o'z hikmatlarida faqirlikka alohida urg'u beradi. Faqirlikni ilohiylashtiradi. Hadisdagi “al faqru-faxriy” – “faqirlik faxrimdir” degan Muhammad payg'ambar tilidan aytilgan gap bilan bog'laydi. Ahmad Yassaviy she'rlarida juda ko'p mutasavvuf shoirlarda bo'lgani singari harom-halol qayta-qayta tilga olinadi. Uning e'tiqodi: faqat o'z mehnati bilan tirikchilik qilish, faqat o'z mehnati haqiga qul bo'lish, boshqasi uning uchun harom edi. U haromdan eng jirkanch narsadan hazar qilganday hazar qiladi. Haromxo'rlikni hech narsa bilan yuvib bo'lmaydigan, gunohi o'sha odamning o'zigagina emas, oila, bola-chaqalariga ham, albatta, uradigan baloyi azim deb biladi. Bunda chuqur ichki mantiq bor. Mehnatsiz kelgan boylik har qanday kishini, har qanday oilani buzadi, har qanday muqaddas ne'matni qadrsizlantiradi. Jamiyatimizdagi tanazzulning boshi mana shunga o'xshagan azaliy va abadiy haqiqatning buzilganidan emasmi? Ahmad Yassaviy mana shunday illatlarga qarshi kurashga chorlaydi.

Ustoz Begali Qosimov ham, Ahmad Yassaviyning mana shunday nafs yo'lidagi kurashini, inson nafsiga qul bo'lmasligi kerakligi g'oyasini ilgari surganligi haqida so'z yuritadi. Olimning takidlashicha, Yassaviy shuhrati,

ayniqsa, turkiy dunyoda keng yoyilgan, Chinmochindan, Sharqiy Turkistondan Azoqtana deb nomlangan Azov dengizi qirg'oqlarigacha, usmonli turklaridan o'rta Volga bo'ylarigacha tarqalgan edi. XIV asr usmonli turklarining hassos shoiri Yunus Emro Yassaviyni o'ziga ustoz bilgan. XVII asrda yashagan iste'dodli tatar shoiri Mavlo Qulining "Devon" - idagi she'rlar aksariyat "Devoni hikmat" yo'lida yozilgan edi.

Olim Begali Qosimovning to'plagan ma'lumotlariga qaraganda, o'zbek adabiyotshunosligida Yassaviyni o'rganish 20-yillardan boshlangan. 1922-yili tatar adabiyotshunosi Abdurahmon Sa'diy "Inqilob" jurnalining 5-sonida maqola e'lon qilgan, lekin ilk jiddiy tadqiqotni 1927-yilda Abdurauf Fitrat amalga oshirgan edi. Jumladan, "Maorif va o'qituvchi" jurnalining 1927-yil 6-sonida katta bir maqola bilan chiqib, "Yassaviy kim bo'lgan?!" degan savol qo'ygan va shoir muhiti, falsafasi, "Devoni hikmat" i va uning adabiy qimmati xususida so'z ochgan edi. Muallif nodir iste'dodiga qaramay, o'sha yillari tomir ota boshlagan partiyaviy monopolistik nuqtai nazaming iskanjasidan uzoq keta olmagan edi. Bundan ko'rinib turadiki ijodkorning mustaqil ijod qilishi uchun, ijtimoi tuzum, o'sha davrdagi ahvol ham yaxshi bo'lmagan. Hamma ham o'z fikrini mustaqil ayta olmagan. Ustoz Begali Qosimov bu davrni shunday yodga oladi: "30-yillarda hikmatlaridan reaksion g'oya izlash boshlandi. Bu musobaqada katta-kichik hamma ishtirok etdilar. 70-yillarda professor Ergash Rustamov Yassaviy g'oyalarining reaksion emasligini isbotlashga urindi. Biroq zamon buni ko'tarmadi. Uning ustiga shoir she'rlarining o'z obrazlar sistemasida tekshirish imkoni bo'lmaganligi pand berdi. Tadqiqotchi tanqid ostida qoldi. Nihoyat, zamon aylanib, demokratiya tantana qilib, yurtimiz istiqlol oldi. Yangi avlod yetishdi. Adabiyot hodisalarini xos xususi-yatlaridan kelib chiqib o'rganish, jumladan, Yassaviy ijodini Sharq falsafasi, estetik tafakkuri matnida tekshira oladigan mutaxassislar paydo bo'ldi. Uni o'rganishning ham obyektiv, ham subyektiv imkoniyati

yuzaga keldi”³⁷. Ming shukrlar bo’lsinkim, mustaqilligimiz sharofati bilan mana shunday allomalarimizning adabiy merosi bugungi kunda xalqqa qaytarildi.

Ushbu qismda “Millatimiz timsoli” deb nom olgan kichik bir maqola ham o’rin olgan bo’lib, ushbu maqola buyuk ma’rifatparvarlardan yana biri Amir Temur haqida. Temur insoniyatning barmoq bilan sanoqli darajadagi yuksak yulduzlaridandir. Uning chaqmoqday shiddatli, momaqaldiraqday larzakor yurishlari, u qurdirgan osmono’par binolar, masjidu ravoqlar haqida tirikligidayoq yuzlab rivoyatlar, afsonalar to’qilgan. O’nlab tarixiy, badiiy asarlar yozilgan. Birgina G’arbiy Yevropada besh-olti asr davomida yozilgan poetik, dramatik, nasriy asarlar to’plansa, bir kutubxonani tashkil qilar. Uning harbiy ishini keyingi paytga qadar G’arbu Sharqda maxsus o’rganib keladilar. Temur — chindan ham favqulodda bir siymo. U xalqimizning qiyomatgacha iftixor etgulik farzandidir. Temur dunyoga kelgan tuproqda turganligingni bir lahza his etmoq har qanday qalbni larzaga soladi. Ustozning ushbu maqolalari ham aynan mana shunday buyuk siymo haqida. Maqolada Amir Temurning tug’ulishidan tortib, uning qirollik davri-yu, hukmronligi ostida qilgan xizmatlari, qurdirgan imoratlari va asarlari haqida so’z yuritiladi.

Bundan tashqari ushbu qismda “Navoiy va muammo janri”, “Navoiy ijodini o’rganishning ayrim masalalari”, “So’nmas yulduz”, “Kamronga Maktub”, “Ulug’larni asrash siri”, “Turkiy adabiyotlarni davrlashtirish masalasi” kabi maqolalardan ham tashkil topgan.

Kitobning ikkinchi qismi bo’lgan “Jadidchilik, masalaning tarixiga bir nazar” fasli ham mavjud bo’lib, ushbu qismda jadidchilikning vujudga kelishi, tarqalish chegarasi, uning mashhur namoyondalari, ularning xalq oldidagi xizmatlari haqida so’z yuritiladi. “Jadidchilik” ning asosida “jadid” so’zi yotadi. “Jadid” ning ma’nosi “yangi” demakdir. U shunchaki “yangi” yo bo’lmasa, “yangilik tarafdori” degani emas. Balki “yangi tafakkur”, “yangi Inson”, “yangi avlod” singari keng ma’nolami o’zida mujassam etgan. Ushbu maqolada ham aynan ana shu sodir bo’lgan yangiliklar haqida so’z yuritiladi. Jadidlarning ilgari

³⁷Qosimov. B.O‘zbek adabiyoti va adabiy aloqalari tarixi. —T.: «Fan va texnologiya», 2008, 9-b.

surgan g'oyalari, ularning namoyondali haqida ma'lumotlar keltirilib o'tadi. Jadidchilikning poydevori, tamal toshi usuli jadid maktabi edi. Bu tabiiy. Hamonki maqsad jamiyatni yangilamoq ekan, uni yangi avlodgina qilishi mumkin edi. Yangi avlodni esa yetishtirmoq lozim. Bu ishdan maqsad ham aynan ana shunday yoshlar orqali o'z g'oyalarini xalqqa yetkazish edi.

Jadidlar yoshlarni G'arb va Sharqning taraqqiy qilgan mamlakatlariga o'qishga yuborishga alohida ahamiyat berdilar. Avloniy tilga olgan toshkentlik taraqqiyparvarlar — “jadidlar to'dasi” “jamiyati xayriya” ochadi. Bundan maqsad ham aynan yoshlarni chet el bilimlaridan xabardor qilib, uni o'z millatiga yetkazish edi. Bir so'z bilan aytganda ustoz Begali Qosimov jadidchilik harakatini chuqur o'rgandi, uning bugungi kunda bizga ma'lum bo'lmagan qirralarini kashf etdi.

Mazkur kitobda olim jadidchilik harakatining Turkistonda taraqqiy etishiga sabab bo'lgan muhim olmillardan biri sifatida adabiy aloqalarni ko'rsatadi va adabiy aloqalar tarixiga chuqur nazar tashlaydi.

Ustoz Begali Qosimovning takidlashlaricha, bu davrda xalqlar orasida hamkorlik juda kuchli bo'lib bular ayniqsa, gazeta va jurnallar chiqa boshlashi bilan yanada jipslashgan. O'tgan asr so'ngidagi eng mashhur gazeta Ismoilbek Gaspralining “Tarjimon”i bo'lgan. 1883-yili Boqchasaroyda dunyoga kelgan bu gazeta birgina Rusiyada emas, umuman, dunyoning barcha qit'alarida yashovchi turkiy xalqlarni bir-birlariga tanitish, ularni madaniy-ma'naviy asosdagi birlikka, hamkorlikka da'vat etish, ayni paytda, milliy ishlarni yo'lga qo'yish borasida 20 yildan ko'proq vaqt davomida asosiy, balki yagona nashr bo'lib kelgan. Bundan tashqari ma'rifat fidoyilari bo'lmish jadidchilarimiz ham, hamkorlikni yanada mustahkamlash qolaversa yoshlarimizni dunyo bilimlaridan boxabar bo'lishlari uchun ularni chet ellarga o'qishga yuborishga jonbozlik ko'rsatdilar.

Jadidlar yoshlarni G'arb va Sharqning taraqqiy qilgan mamlakatlariga o'qishga yuborishga alohida ahamiyat berdilar. Avloniy tilga olgan toshkentlik taraqqiyparvarlar — «jadidlar to'dasi» «jamiyati xayriya» ochadi. Umuman olganda, mamlakatimiz qop-qora zulmat qa'rida qolgan paytlari ham uning farzandlari orasida yorug'likka yo'l topib, oz-ko'p bahra olganlari bo'lgan.

Asarning “Jadid matbuotchiligi”, “Qardoshlik, hamkorlik”, «Taijimon» va Turkiston”, “Tatar matbuoti va Turkistonda jadidchilik”, “Ittifoqi muslimin” kabi fasllarida jadidchilik harakati va jadid adabiyotining rivojida jadid matbuotining, qardoshlik aloqalarining o'rne katta bo'lganligini ta'kidlaydi. Jumladan, kitobning “Tatar matbuoti va Turkistonda jadidchilik” faslida Turkistonda jadidchilik rivojida tatar matbuotining o'rne katta bo'lganligini ta'kidlaydi. Tatar matbuoti namunalari sifatida “Qozon muxbiri”, “Yulduz”, “Ozod”, “Vaqt” kabi gazeta va jurnallar nashrdan chiqqanligi, unda Turkiston jadidlarining ham maqolalari e'lon qilinganligini aytib o'tadi. Jumladan, olim, bu boradagi M.Behbudiyning faoliyatiga alohida to'xtaladi. “Gazetada Mahmudxo'ja Behbudiyning «Faryodi Turkiston» (1907 №132), «Duma va Turkiston musulmonlari» (1907, №239) Abdulqodir Shakuriyning «Turkistonda maktab va tarbiya» (1907, №147) kabi turkistonliklarning ham ko'plab maqolalarini uchratish mumkin”³⁸, deb yozadi M.Behbudiyni faoliyati to'g'risida. Qolaversa, tatar gazeta va jurnallarida turkistonliklarning ahvoli tahlil qilingan ijtimoiy mavzudagi maqolalarning diqqatni tortishi haqida qayd etilgan: “Behbudiyn esa «Duma va Turkiston musulmonlari» maqolasida turkistonliklarning siyosiy huquqlari ham tamoman cheklanganligini yozadi. Buning misoli sifatida 1-Davlat Dumasiga mahalliy xalqdan umuman vakil yuborilmaganini, 2-Dumada esa o'lkada yashovchi 70 ming yevropali aholidan 6 kishi saylangani holda 7 millionni tashkil etgan mahalliy xalqqa atigi 5 o'rin ajratilganini achinish bilan qayd etadi”³⁹. Ko'rinyaptiki, B.Qosimov Turkiston jadidlarining faqatgina o'z yurtidagi faoliyati bilan emas, balki dunyo miqyosidagi harakatlari, adabiy, ijtimoiy, madaniy aloqalar tarixiga qo'shgan hissasi mavjudligini asoslab beradi.

Kitobning uchinchi qismi bo'lgan “Adabiy hamkorlik masalalari do'stlik iplari” qismi aynan boshqa millat va elatlar bilan hamkorlik haqida so'z yuritiladi.

³⁸ O'sha asar, 107-b.

³⁹ O'sha asar, 109-b.

Mazkur qism adabiy aloqalar tarixining faqatgina jadidchilik bilan bog'liq davrni qamrab olmaydi, balki kengroq doirada ekanligi bilan ahamiyatga ega. Ushbu qismda “Shahri Bulg’or hikoyati”, “Bulg’or haqiqati”, “Saroy yozmishi”, “Suyumbeka minorasi”, “Birinchi may maydoni”, “Ona allasi”, “Buxoro saboqlari”, “Shihobiddin Marjoniy”, “Ey Qozon, dardli Qozon, mungli Qozon, nurli Qozon”, “Universitet kutubxonasida”, “Istiqbolga yo'l izlab”, “Tohir Chig'atoyning Bambergdagi shogirdi O'zbek-turk adabiy aloqalari”, “To'pqopidan To'pqopiga”, “Ayo Sufiya” va yana bir qancha maqolalardan iborat. Ushbu qismda Begali Qosimov nafaqat qardosh xalqlar bilan do'stlik, hamkorlik masalalarini balki, bir necha xil minoralarning kelib chiqish tarixi, Avliyolar maskanlari, Buxoro xalqi va u yerdagi shart-sharoitlar haqida so'z yuritiladi. Shuni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerakki, B.Qosimov milliy uyg'onish davri adabiyotini chuqur o'rgangan olim sifatida hurriyat va ezgulik, Vatan, Millat ozodligi uchun kurash olib borgan, shu yo'lda fidoyilik ko'rsatgan vatandoshlarimiz faoliyatiga oid muhim masalalarni o'rganishga harakat qiladi. Shu jumladan, jadidchilik davridagi adabiy aloqalarga ham alohida diqqat qaratadi. Turk, tatar, bulg'or, ...xalqlari bilan adabiy aloqalar tarixi kitobd ateroan faktlarga asoslanib yoritilgan.

Xullas, B.Qosimovning o'zbek adabiyotining turli bosqichlariga oid adabiy-tanqidiy masalalar, shuningdek, adabiy aloqalarning xilma-xil qirralari to'g'risidagi ishlari ham diqqatga sazovor. Olim milliy uyg'onish va jadidchilik tarixini har tomonlama keng o'rganadi va mazkur muammoning xalqaro ahamiyatini ochib berishga erishadi. Olimning jadid adabiyoti va adabiy aloqalar tarixiga oid keltirgan ma'lumotlari va qarashlari bugungi kunda mazkur davrni atroflicha o'rganishga yordam beradigan manbalardan hisoblanadi.

XULOSA

Begali Qosimov XX asrning ikkinchi yarmida adabiyotga kirib keldi. Ulkan shijoat, kuch-g'ayrat, yangi ruh, o'zgacha kayfiyat bilan kirib kelgan ustoz to umrining oxiriga qadar yonib turdi. U o'zbek adabiyotining so'nmas quyoshlaridan biri edi. Ko'plab adabiyotshunoslarning diqqatini o'ziga jalb qildi. Bu hol uning ijodiga boshqalarnikiga o'xshamagan nimadir borligidan nishona edi. Shu sababli ham o'qib yurgan kezlarning o'zidayoq ustozlari uni o'zlariga shogird qilib olishgan. U sinchkov, izlanuvchan olim edi. Izlanishlari davomida qimmatli manbaalar – darsliklar, qo'llanmalar, monografiya va risolalar yaratdi, ma'rifatparvar adiblarning asarlarini to'plab nashrga tayyorladi. Biz ustoz Begali Qosimovning mashaqqatli mehnati va sa'y-harakatlari tufayli jadid adabiyoti bilan yana ham yaqinroq tanishdik. Ustozning "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti", "Milliy uyg'onish:jasorat, ma'rifat, fidoyilik", "Siddiqiy Ajziy", "Maslakdoshlar" kabi kitoblari aynan milliy uyg'onish davridagi ilm ziyolilari bo'lmish jadidlar hayoti haqida ma'lumot beradi. To'g'ri, biz bunda oldin ham jadidlar haqida ma'lumotga ega edik, lekin ularning qachon qayerda tug'ulib-o'sganligi, qilgan xizmatlari va asarlarining mazmun-mohiyati haqida to'laqonli ma'lumotlarga ega emas edik.

B.Qosimovning nafaqat bugungi, balki ertangi avlod uchun qilgan eng katta xizmatlaridan biri jadid adabiyoti namoyondalarini keng xalq ommasiga tanitganligi bo'ldi. Albatta, shoirni shoirdan, yozuvchini yozuvchidan farqi bo'ladi. Haqiqiy iste'dod egasini xalqning o'zi tan oladi, o'zi baho beradi. Olim Begali Qosimov ham mana shunday xalqning nazariga tushgan, xalqimiz sevgan ijodkorlardan, iste'dodli olimlardan edi. Shuning uchun ham ustoz Prezidentimiz tomonidan bir qancha davlat mukofotlari bilan taqdirlangandi. U shunchalik sinchkov, izlanuvchan bo'lganki, hatto bir ijodkorning hayoti bilan qiziqsa, u yashagan manzilgohlarga borib yashab, uning boshidan o'tkazgan kunlarni his qilishga harakat qilgan.

B.Qosimovning adabiyot, ayniqsa jadid ma'rifatparvarlik adabiyoti uchun qilgan xizmatlari beqiyos ekanligini ta'kidlagan va olimning xizmatlarini ma'lum bir-ikki jumla bilan baholash imkonsizligini ta'kidlagan holda, uning faoliyatiga oid ayrim jihatlarni alohida qayd etib o'tish mumkin:

1. Ustoz Begali Qosimov haqiqiy matnshunos edi. Tilga, xatga ayniqsa, isloh qilingan eski o'zbek yozuviga nihoyatda ehtiyotkorlik, sichkovlik bilan yondashgan. Jumladan, olim, asrlar davomida qo'llanib kelgan arab alifbosi asosida eski o'zbek yozuvini XX asrga kelib isloh qilishga muvaffaq bo'ldi. Bu ustozning buyuk xizmatlaridan biri edi. Umuman olganda Begali Qosimov shug'ullangan davr ilmiy, adabiy, tarixiy manbaalarni o'qish ancha mushkulliklarga ega edi. Bu davrning tili va yozuvi mrakkabliklariga qaramay olim qanchadan-qancha matnlarni asliday qilib bugungi kundagi o'quvchiga yetkazishga erishdi.

2. Istiqlol fidoyilari hayoti va ijodi yoritilgan Begali Qosimovning qimmatli darsliklari. Ustozning: "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti", "Izlay-izlay topganim", "Salom kelajak", "Maslakdoshlar", "Siddiqiy Ajziy", "Uyg'ongan millat ma'rifati", "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik" kabi kitoblari va 300 dan ortiq tadqiqotlari mavjud. Ushbu asarlarida o'sha davr tuzumi, ijtimoiy-siyosiy ahvoli, o'sha davrda yashagan olimlarning hayot yo'li, ijodi va asarlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Uning har bir kitobi boshqasiga o'xshamaydigan, bir-birini takrorlamaydigan sir-sinoatlardan iborat. Jumladan, uning "Siddiqiy Ajziy" kitobi alohida diqqatni tortadi. Nega deganda, biz ayna ustoz Begali Qosimov tufayligina ushbu ijodkor bilan tanishdik. Uning aslida kim bo'lganligi, qayerda yashaganligi, asarlari haqida umuman ma'lumotga ega emas edik. Ustoz tufayli mana shunday istiqlol fidoyilarining nomlari yana tiklanib, adabiyotga qaytarildi.

3. "So'ngi jadid qissasi". Ushbu kitob olimning zamondoshlari, do'stlari, yaqinlari, oila azolari tomonidan yozilgan. Bu kitobda faqat ustoz Begali Qosimov haqida so'z yuritiladi. Uning hayot tarzi, tug'ulganidan boshlab to umrining oxiriga qadar boshidan o'tkazgan kunlari, olim bilan yoshlikdan birga katta

bo'lgan do'stlari tilidan yozilgan. Asosan, uning yaqin do'stlaridan bo'lgan shoir Abdulla Oripov, Ozod Sharafiddinov, yozuvchi O'tkir Hoshimov, Nizom Komil, Muhammad Ali, Umarali Normatov, Sotim Xolboyev va bir qancha ijodkorlar tomonidan yozilgan maqolalardir. Bu ijodkorlar ustoz Begali Qosimov bilan yoshlikdan birgalikda katta bo'lgan, maktabda ham, oliy o'quv yurtida ham u bilan birga bo'lgan, hatto umrining oxiriga qadar yonida bo'lgan do'stlaridir. Biz olim haqida eng ko'p ma'lumotlarni aynan ana shu kitobdan topishimiz mumkin. Bu kitobda olimning oila azolari, farzandlari, xotini Matlubaxon haqida, bundan tashqari ota-onasi haqidagi qimmatli ma'lumotlarga ham duch kelamiz.

Xulosa qilib aytganda, Begali Qosimov bugungi yosh avlod uchun haqiqiy ilm maktabi bo'lib qola oldi. U qoldirgan qimmatli meros uning nomini abadiylikka muhrladi. Ustoz asarlari tufayli abadiy yashaydi. So'zimning oxirini Eshqobil Shukurning Begali Qosimov vafotiga bag'ishlangan "So'nggi jadid" nomli she'ri bilan yakunlash mumkin:

So'ngi jadid

Ne fitnalar ko'rdi yuz yil orasi,
Sutmas, ko'z yosh emar Armon bolasi...
O'tdan zuvolasi – qalb fuqarosi,
Bormi aytilmagan so'zning chorasi?..
Alvido, o'zbekning jigarporasi.

Bulbul so'z so'zlasa, bari adabiy,
Bepusht yil o'tkinchi, xush on abadiy
Va seni yetaklab ketar Behbudiy,
Yaxshi bor, egilmas jur'at nar'asi,
Alvido, o'zbekning jigarporasi.

O'limga chora bor, izga chora yo'q,
Qullarcha egilgan tizga chora yo'q
Va harom sotilgan so'zga chora yo'q,

Haqdan o'zga sira o'zga chora yo'q,
Bukilmagan so'zning ozod bolasi,
Yaxshi bor, o'zbekning jigarporasi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Begali Qosimov bugungi kun yosh avlod uchun haqiqiy o'rnak maktabi bo'la oldi. Uning ilmiy faoliyati va amaliy harakatlari natijasida milliy so'z san'atimiz xazinasini adabiy jamoatchilikka notanish bo'lgan ko'plab jadid ma'rifatparvarlik adabiyoti vakillarining nomlari bilan boyidi. Ustoz yaratgan darslik va qo'llanmalar uning xotirasini abadiylikka muhrladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. T., “O‘zbekiston”, 2017. -12 b.
2. МирзиёевШ. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Шавкат Ўзбекистон, 2016. -210 б.
3. Karimov I. Ilmu fan mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qilsin. Asarlar to’plami. 2-jild. –T.: O‘zbekiston, 1996.
4. Karimov I.O‘zbekiston buyuk kelajak sari. –T.: O‘zbekiston, 1998.- 679 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma’naviyat, 2008. – 108 b.

II. Ilmiy adabiyotlar va manbalar

6. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. I jild. –T.: Fan, 1978.- 342 b.
7. Adabiyot nazariyasi. Ikki jildlik. II jild. –T.: Fan, 1979. - 264 b.
8. Adabiyot–ruhiyat mulki. / Adiblarimizning ijod sirlari haqida durdona fikrlaridan. –T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.
9. Abdusamatov H. Tarix va badiiy talqin. –T., 1995.
10. Аристотель. Поэтика (Поэзия санъати ҳақида). – Т.: Адабиёт васанъат, 1980. – 152 б.
11. Otaboy A. Shaxs, jamiyat va abadiyat // O‘zbekiston adabiyoti vasan’ati, 1997, 14-mart.
12. Abdusamatov H. Yangi zamon, yangi adabiyot // O‘zbekiston adabiyoti vasan’ati, 1996, 29- mart.

13. Бобоев Т. “Адабиётшуносликка кириш” курсидан ўқув методик қўлланма.– Т.: Ўқитувчи, 1979. – 560 б.
14. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – 544.
15. Karimov N. O‘zlikning badiiy ifodasi. Hikoyalarda hayot muammolaritalqini // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2003, 11-iyul.
16. Rahmonov B. O‘zbek adabiy tanqidchiligi. — Т.: Yangi asr avlodi. 2004.
17. Мирзаев Т. Миллий истиқлол мафкураси ва ўзбек адабиётшунослиги // Ўзбек тили ва адабиёти, 1994 йил.- №3.
18. Nazarov B., Rasulov A., Qahramonov Q., Axmedova Sh. O‘zbekadabiy tanqidchiligi tarixi: darslik. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 432 b.
19. Султонов И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – 408б.
20. Сўнги жадид қиссаси. –Т.: “Turon-Iqbol”, 2012.– 336 б.
21. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. – Т.: Шарқ, 2002. -264 б.
22. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 112 б.
23. ҚосимовБ. Сиддикий-Ажзий. / Танланган асарлар.–Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1973. -74 б.
24. ҚосимовБ. Излай-излайтопганим.....Т: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983.
25. ҚосимовБ.Маслакдошлар (Бехбудий, Ажзий, Фитрат).–Т.: «Шарқ», 1994. - 156 б.
26. Қосимов.Б. Миллийуйғониш: жасорат, маърифат, фидоийлик. – Т.: «Маънавият», 2002. -400 б.
27. ҚосимовБ. Уйғонган миллат маърифати. –Т.: Маънавият, 2011.
28. ҚосимовБ. ва бошқалар. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. –Т.: «Фан ва технология», 2008.

29. Қосимов Б. Ўзбек адабиёти ва адабий алоқалари тарихи.- Т.: «Фан ва технология» нашриёти, 2008. -600 б.
30. Қосимов Б. Аллома адиб. / Фитрат А. Чин севиш. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996. – Б. 3-22.
31. Қосимов Б. Оқ тонглари орзулаган шоир. / Авлоний А. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 1998. – Б.5-78.
32. Қосимов Б. Карвонбоши. / Бехбудий М. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 1999. – Б.38.
33. Қосимов Б. Дин ва дунёни ушлаган шоир. / Хондалиқий С. Танланган асарлар. – Т.: Маънавият, 1998. – Б.5-31.
34. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Т.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 224 б.
35. Sharafiddinov O. Adabiyot mangu yashaydi / / Jahon adabiyoti. 1998, Cho'lpon. Adabiyot nadur? Adabiy-tanqidiy maqolalar. - Т.: 1993.
- 36.

III. Lug`atlar

37. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. Т.: Ўзб. Мил. Энсик, 2006-2008.
38. Ҳомидов Ҳ. , Абдуллаева Ш. , Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1970.
39. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Т. : Ўқитувчи, 1983.
40. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006.
41. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 234 б.

IV. Internet saytlari

42. [www.o'zbek adabiyoti.com](http://www.o'zbek-adabiyoti.com).
43. www.ziyonet.uz.
44. [www.nuqf. intal. Uz](http://www.nuqf.intal.uz)
45. www.kh-davron.uz.
46. www.ta'lim.uz.
47. www.school.edu.ru.
48. www.pedagog.uz
49. www.ref.uz.